

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya va tillarni o‘qitish fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrası

Qo‘lyozma huquqida

Abdusamatova Dilnora

O‘ZBEK TILIDA MULOQOT SHAKLLARINING PRAGMATIK TADQIQI

5220100 – filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr

darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

f.f.n, dots. D.A.Nurmonova

Andijon - 2017

M U N D A R I J A:

ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....	4
BIRINCHI BOB. Nutqiy muloqot vaziyatlari.....	7
1.1. O`zbek tilida muloqot shakllari	9
1.2. Murojaat va undalma.....	13
1.3. Muloqotda nolisoniy vositalarning pragmatik xususiyatlari.....	20
IKKINCHI BOB. Muloqotda pragmatik ma`noning yuzaga chiqishi.....	28
2.1. Muloqot shakllarida pragmatik ma`noning ifodalanishi.....	33
2.2. Muloqotda gender farqlanishlar va ularda pragmatik mazmunning yuzaga chiqishi.....	43
XULOSA.....	56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	59

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov insoniyatning eng yuksak boyligi bo'lgan ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini batafsil yoritilgan "Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch" asarida ma'naviyatni shakllantiruvchi omillardan biri ona tilimizga ehtirom va uning xalqaro maydondagi obro' – e'tiborini hamda nufuzini ko'tarish, yuksaltirish ekanligini alohida qayd etganlar. Darhaqiqat, birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy – ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir".¹

Nutqiy muloqot jarayoni ijtimoiy va tabiiy jarayon. Pragmatika nutqiy muloqot jarayoni inson faoliyatining o'nlab qirralari bilan bog'liqlikda o'rganadi.

Har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, hatto, nuqsonlari ham muloqot jarayonining mahsulidir. Har qanday muloqotning eng sodda vazifasi – suhbatdoshlarning o'zaro bir-birlarini tushunishlarini ta'minlashdir. Pragmatika muayyan vaziyatda aytilgan axborotning tinglovchiga ta'sirini o'rganadi. Demak, pragmatika nutqiy muloqot jarayonida sodir bo'lgan holatlarni o'rganadi.

Hozirgi davr tilshunosligida insonning ya'ni erkak va ayolning jamiyatda tutgan o'rnini, ularning ruhiy olami va til xususiyatlari bilan bog'liq gender lingvistikasi yo'nalishi bo'yicha tadqiqotlar kuchaydi.

Ishimiz davomida tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri gender munosabatda pragmatik ifodadaning farqlarini tadqiq qilish hisoblanadi. Bu

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент, "Маънавият" 2008. –Б. 83.

bilan erkak va ayolning o`ziga xos tarzda pragmatik olami namoyon bo`lishini ko`rib chiqdik.

**Muammoning o`rganilganlik darajasi.** Nafaqat jahon tilshunosligida, o`zbek tilshunosligida ham inson nutqiy faoliyati bilan bog`liq masalalarni o`rganish muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etmoqda. O`zbek tilshunosligida pragmlingvistika sohasining o`rganilishi orqali inson nutqini o`rganish uning ma`naviy olami bilan tanishish imkonini bera boshladi.

O`zbek tilshunosligida pragmlingvistikaga oid masalalar, muammolar N.Mahmudov, A.Nurmonov kabi olimlar tomonidan pragmlingvistikaning mundarijalaridan biri bo`lgan Pressupozitsiya sohasi o`rganilgan.

U.Rahimov o`zbek tilida “Yuklamalar pressupozitsiyasi” bo`yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Professor Sh.Safarov roman-german tillari bo`yicha mutaxassis “Pragmlingvistika” nomli monografiyasida sohaning nazariy masalalariga to`xtaladi va nutq madaniyati bilan bog`liq pragmatikaning jihatlarini o`rganishga asosiy e`tiborini qaratadi. Biroq ushbu monografiyada pragmlingvistikaning nazariy manbalari berilgan holda, ular misollar bilan isbotlanmagan.

M.Hakimov 2001-yildagi doktorlik dissertatsiyasida pragmlingvistikaning mundarijasi alohida ko`rsatiladi.

S.Boymirzayeva esa pragmlingvistikani modallik aspektida o`rgangan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Ishning asosiy maqsadi o`zbek tilida muloqot shakllarini pragmatik jihatdan tadqiq qilish. Ana shu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- nutqiy muloqot vaziyatlari haqida ma`lumot berish;
- o`zbek tilida muloqot shakllari va ularning xususiyatlarini yoritish;
- murojaat va undalmada pragmatik hodisalarning namoyon bo`lishini ko`rsatish;
- muloqot shakllarida pragmatik mazmunning ifodalanishini tekshirish;

- muloqotda gender farqlanishlar va ularda pragmatik mazmunning yuzaga chiqish holatlarini yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti va materiallari. Mazkur bitiruv malakaviy ishiga asos qilib olinayotgan mavzu va o`rtaga tashlanayotgan masalalar o`zbek tilshunosligida yetarlicha o`rganilmagan. Shunday bo`lsa-da, mavzuni yoritishda tahlilga olingan ijod namunalari yuzasidan ilmiy-adabiy kitoblardan ijobiy foydalanildi. Jumladan, tilshunos olim M. Hakimov va U.Rahimovlarning ishlari ushbu mavzuni yoritishda ko`makchi vosita bo`lib xizmat qildi.

Tadqiqotning predmetini. O`zbek tilida muloqot shakllari orqali ifodalangan pragmatik hodisalarni tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning metodologik asosini. Tadqiqot jarayonida jahon va o`zbek olimlarining pragmatolingvistika, muloqot psixologiyasi va noverbal vositalar haqida bayon qilingan nazariy fikrlar, mulohazalarga murojaat qilindi.

BMIning tuzilishi va hajmi. Bitiruv-malakaviy ishi ishining umumiy tavsifi, II bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, umumiy hajmi 62 sahifani tashkil qiladi.

BIRINCHI BOB.

Nutqiy muloqot vaziyatlari

Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o`zlashtirish va o`z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Muloqot faqat insonlarga xos bo`lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlari bilan muloqotda bo`lish ehtiyoji tug`iladi. O`zaro muloqot esa, tabiiyki, kishilik jamiyati vujudga kelishining eng asosiy unsuri hisoblanadi. Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlarda ichida yetakchi o`rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni – jamiyatda yashash va o`zini shaxs deb hisoblash bilan bog`liq ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham har bir inson uchun ahamiyati kattadir. Muloqot jarayonida *kommunikativ* (axborot uzatish), *interaktiv* (o`zaro ta`sir) va *perseptiv* (o`zaro idrok etish) amalga oshiriladi².

Muloqot – odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o`zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya`ni har bir shaxsning jamiyatda ado etadigan ishlari (mehnat, o`qish, o`yin, ijod qilish va boshqalar) o`zaro munosabat va o`zaro ta`sir shakllarini o`z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlariga bilan til topishishni, bir-biriga turli xil ma`lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o`rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro`si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog`liqdir.

Muloqot ishtirokchilarining munosabati, ular bajarayotgan ijtimoiy rol asimmetrik (notekis) bo`lsa, odatda, kommunikatsiya tamoyili qoidalariga qat`iy amal qilish talab qilinadi. Tobe o`rindagi kommunikant nutqiy harakat tanlovi qoidalariga so`zsiz amal qilishi lozim. Masalan, tobe shaxs o`z xo`jayini yoki boshlig`iga iltimos, shikoyatni aniq yetkazishi lozim. Aks holda, “*Nega buncha g`uldiraysan, aniqroq gapirsangchi!*” qabilidagi tanbehni olish hech gap emas.

² Каримова В. М. Ижтимоий психология асослари. – Тошкент, 1994. – 36-бет.

Xuddi shuningdek, boshliqqa soʻz qaytarish, uning gapini boʻlish nimalarga olib kelishi ham maʼlum.

Bir qarashda osonga oʻxshagan shaxslararo muloqot jarayoni aslida juda murakkab jarayon boʻlib, unga odam hayoti mobaynida oʻrganib boradi. Muloqotning murakkab ekanligi haqida B.F. Parigin shunday yozadi: “Muloqot shunchalik koʻp qirrali jarayonki, unga bir vaqtning oʻzida quyidagilar kiradi:

- a) individlarning oʻzaro taʼsir jarayoni;
- b) individlar oʻrtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;
- c) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- d) bir kishining boshqalarga taʼsir koʻrsatish jarayoni;
- e) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- f) shaxslarning bir-birlarini tushunish jarayoni³.

Muloqot faqat insonlarga xos boʻlgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlari bilan muloqotda boʻlish ehtiyoji tugʻiladi. Oʻzaro muloqot esa, tabiiyki, kishilik jamiyati vujudga kelishining eng asosiy unsuri hisoblanadi. Muloqot odamlar oʻrtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bogʻlanishlar rivojlanishning koʻp qirrali jarayonidir. Muloqot (murojaat) birgalikda faoliyat koʻrsatuvchilar oʻrtasida axborot ayirboshlashni oʻz ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ (oʻzaro aloqaga doir) jihati hisobga olinadi. Muloqot tushunchasini kommunikatsiyadan farqlash kerak. Kommunikatsiya – tirik va oʻlik tabiatdagi tizimlar oʻrtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar oʻrtasidagi signallar almashinuvi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi – bularning barchasi kommunikatsiya. Muloqot esa faqat insonlar oʻrtasidagina amalga oshirilishi mumkin. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda va munosabatda boʻlish jarayonida shaxsga aylanib boradi, ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallab boradi.

Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning oʻzaro birgalikdagi

³ Каримова В. М. Ижтимоий психология асослари. – Тошкент, 1994. – 35-бет.

harakati – nutq jarayonida faqat soʻzlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham muloqot yuritishdan iborat.

1.1. Oʻzbek tilida muloqot shakllari

Muloqotning turli shakllari mavjud boʻlib, dastlabki bosqich – odamning oʻzi-oʻzi bilan muloqotidir. T.Shibutaki “Ijtimoiy psixologiya” darsligida: “Agar odam ozgina boʻlsa ham oʻzini anglasa, demak, u oʻz-oʻziga koʻrsatmalar bera oladi” – deb toʻgʻri yozgan edi. Insonning oʻz-oʻzi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining xarakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam oʻz-oʻzi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan oʻzini chetga tortib, tortinib yursa, demak, u boshqalar bilan suhbatlashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin. Demak, boshqalar bilan muloqot – muloqotning ikkinchi bosqichidir.

A.N. Leontev oʻzining “Psixika taraqqiyotidan ocherklar” kitobida muloqotning uchinchi shakli – avlodlar oʻrtasidagi muloqotning ahamiyati toʻgʻrisida shunday deb yozadi: “Agar barcha katta avlod oʻlib ketganda, insoniyat turi yoʻq boʻlib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yoʻqolib ham ketishi mumkin edi”. Haqiqatdan ham, avlodlararo muloqotning borligi tufayli har bir jamiyatning oʻz madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud boʻladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilgʻor vakillari uni doimo kegingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda taʼlim, tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar.

Koʻpgina olimlar muloqotning inson hayotidagi ahamiyatiga toʻxtalib oʻtar ekanlar, uning qator vazifalari, funksiyalarini ajratadilar. Muloqotning hayotimizdagi shakl va koʻrinishlariga kelsak, uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlarga mos keladigan, oʻsha vaziyatlardan kelib chiqadigan koʻrinishlari va turlari haqida gapirish mumkin. Lekin umumiy holda, har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda boʻladi. Agar rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqsa, masalan,

rahbarning o'z qo'l ostida ishlayotgan xodimlar bilan muloqoti, professorning talaba bilan muloqoti va hokazo, norasmiy muloqot – bu odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o'sha suhbatdoshlarning fikr-o'ylari, niyat-maqсадlari va emotsional munosabatlari bilan belgilanadi. Masalan do'stlar suhbatlari, uzoq safarga chiqqan yo'lovchilar suhbatlari, tanaffusga chiqqan talabalarning moda, shaxsiy munosabatlar borasidagi munozaralari. Insonlarning asl tabiatiga mos bo'lgani uchun ham norasmiy muloqot doimo insonlarning hayotda ko'proq vaqtini oladi va bunda ular charchamaydilar. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, insonda ana shunday muloqotga ham qobiliyatlar kerak, ya'ni uning qanchalik sergapligi, ochiq ko'ngilligi, suhbatlashish yo'llarini bilish, til topishish qobiliyati, o'zgalarni tushunishi va boshqa shaxsiy sifatleri kundalik muloqotning samarasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun hamma odam ham rahbar bo'lolmaydi, ayniqsa, pedagogik ishga hamma ham qo'l uravermaydi, chunki buning uchun undan ham rasmiy, ham norasmiy muloqot texnikasidan xabardorlik talab qiladi.

Har bir muloqot turining o'z qonun-qoidalari, ta'sir usullari va yo'l-yo'riqlari bor. Ularni bilish har bir kishining, ayniqsa, ko'pchilik bilan doimo muloqotda bo'ladiganlarning burchidir. V. Karimovanning fikricha muloqot jarayonida ta'sirning uch vositasi farqlanadi:

1. Verbal ta'sir – so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimiz. Asosiy vosita bu yerda so'zlardir. Nutq – so'zlashuv, o'zaro muloqot jarayoni bo'lib, uning vositasi so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham kishi o'zidagi barcha so'zlar zaxirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, sherigiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi.

2. Paralingivistik ta'sir – nutqning atrofida uni bezovchi, kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, nidolar kiradi. Shunga qarab, do'stimiz bizga biror narsani va'da berayotgan bo'lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz.

3. Noverbal ta'sirning ma'nosi nutqsizlikdir. Bunga suhbatdoshlarning makonda bir-birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, holatlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingivistik omillar 38% va noverbal harakatlar 58% gacha ta'sir qilar ekan⁴.

Muloqotning qanday kechishi va kimning ko'proq ta'sirga ega bo'lishi sheriklarning rollariga bog'liq. Ta'sirning tashabbuskorida ataylab ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'ladi va bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta'kidlangan vositalardan foydalanadi. Masalan, rahbar xodimini unga ishi tushib chaqirsa, xodimini o'rnidan turib kutib oladi, keyin maqsadga o'tadi. Har bir normal kishi o'zini, o'zgalarni tinglashga, o'z fikrini birovlariga yetkazishga, ya'ni gapirishga, fikrlarini ba'zan yozma tarzda bayon etishga tug'ma qobiliyatli dey tasavvur qiladi. Lekin aslida ana shu birovlarni tushunish va o'z fikrlarimiz, o'ylarimizni birovlariga yetkaza olish qobiliyati bizning insoniy munosabatlar tizimida ekanligimizni, har birimiz o'zimizga o'xshash inson jamiyatisiz mavjud bo'la olmasligimizni bildiradi. Insoniy munosabatlar o'zaro shunday ta'sir jarayonidirki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab kishilar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvish-quvonchlar almashinuvi nazarda tutadi. Kishilar muloqotda bo'lgani sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladi, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni – bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi.

O'zaro muloqotga kirishayotgan tomonlar munosabatlaridan ko'zlagan asosiy maqsadlari - o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir.

⁴ Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent: 2006. 98-99-betlar.

Til muomala vositasidir. Til muomalaga kirishuvchilar o`rtasidagi kommunikatsiyani ta'minlaydi, chunki uni axborot beruvchi ham, axborotni qabul qiluvchi ham birday tushunadi. Boshqa kishiga axborot beruvchi (kommunikator) va uni qabul qiluvchi (retsipiyent) muloqot jarayonida bir xil tildan foydalanishi kerak, aks holda bir-birini to`g`ri tushuna olmaydi.

Muloqot jarayoni nutqiy faoliyatning o`zidir. Muloqot jarayoni va nutq faoliyati o`zaro bog`liqdir. Nutq faoliyati – insonlarning o`zaro aloqa o`rnatishi o`z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Nutqiy muloqot shakllari quyidagicha farqlanadi: faol va passiv nutqiy muloqot shakllari. So`zlovchining nutqi faol nutq, tinglovchining nutqi passiv nutq hisoblanadi. Nutq ichki va tashqi nutqqa bo`linadi. Tashqi nutq – yozma va og`zaki nutqqa, og`zaki nutq esa monologik va dialogik nutqqa bo`linadi. Monologik nutq bir kishining o`ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqidir. Bu – o`qituvchining bayoni, o`quvchining to`laroq javobi, ma`ruza va boshqalar. Monologik nutq ma`lum qiyinchiliklarga ega. Monologda gapirayotgan kishi fikrlarning aniqligiga, grammatik qoidalarining saqlanishiga, mantiq va aytilayotgan fikrlarning izchilligiga e`tibor berish kerak.

Dialogik nutqqa nisbatan monologik nutq kechroq shakllanadi. Oilada, maktabda bolaning monologik nutqi rivojlanishiga alohida e`tibor berish kerak. Dialogik nutq ikki yoki undan ortiq kishilar o`rtasidagi muloqotdir. Dialogik nutqda bayon qilinayotgan fikr ko`p jihatdan undan oldingi fikrga bog`liq bo`ladi. Dialogik nutqda har xil turdagi shablonlar, ya`ni odatlanib qolgan so`z birikmasi ko`p uchraydi (qoyil, marhamat qilib aytingchi).

Nutqning ichki nutq deb atalgan turi nutq faoliyatining alohida turi hisoblanadi. Ichki nutq amaliy va nazariy faoliyatni rejalashtirish bosqichi sifatida namoyon bo`ladi. Ichki nutq ayrim og`zaki nutq aktlaridan, xususan ixtiyoriylik darajasi ancha yuqori bo`lgan og`zaki nutqdan yuksakroq sodir bo`lishi mumkin. Yozma nutq monologik nutqning turlaridan biri bo`lib, yozma nutq monologik

nutqqa nisbatan batafsilroqdir. Yozma nutq tufayli kishilar to`plagan tajribani avloddan avlodga eng yaxshi tarzda yetkazish imkoniyati bor⁵.

1.2. Murojaat va undalma

Murojaat qilish muloqot shakllaridan biri hisoblanadi. O`zbeklarda er-xotin o`rtasidagi murojaat o`ziga xos o`rin tutadi. Abdulla Qahhorning “Nutq” hikoyasida notiqning ayoliga murojaati orqali pragmatik to`siq hodisasini yuzaga keltiradi.

Pragmatik to`siq hodisasi pragmatikaning xususiy masalaridan biri hisoblanadi. Pragmatik to`siq sintaktik qurilmalarning nome`yoriy qo`llanishi va fikr ifodalashning me`yorsiz uslubi kabi hodisalarni o`rganadi.

O`rtoq rafiqam! Ijizat berasiz, xushchqaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunalik bajarib kelayotganimizga bir yil to`lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga⁶!

Bu matnda ifodaning uslubiy mantiqsizligi, ya`ni so`zlovchining o`z xotiniga norasmiy vaziyatda (uyda) rasmiy munosabati pragmatik to`siqni yuzaga keltiradi. Aslida, pragmatik to`siq matn mazmunini anglashga to`siq bo`lishi lozim edi. Biroq Abdulla Qahhor pragmatik to`siqdan uslubiy vosita sifatida foydalanadi. Matnda ifodalangan axborotning mazmuni tinglovchi anglashi uchun to`siq bo`lmaydi. Bunday matnlar kitobxonga g`ayritabiiy tuyuladi. Badiiy adabiyotda uchraydigan bunday hodisalar san`atkorning individual uslubi bilan bog`liq ravishda obrazning xarakterini ochish maqsadida uning nutqida atayin xatoga yo`l qo`yadi.

Kinoya pragmatikaning xususiy masalalaridan biri hisoblanadi. Quyida undalma orqali ifodalangan kinoya ko`rinishlarini keltirib o`tamiz.

Obbo, tegirmonchining qizi! Bitta qo`yni nazarlariga ilmaydi! Nechta qo`y bo`lsa arzir edi? Sen o`zing o`nta qo`y bersam, pichoq sanchib kelasanmi?⁷

⁵ O`sha asar. 34-bet.

⁶ Абдулла Қаҳҳор. Нутқ. — Тошкент. 1988. Б. 313.

⁷ Абдулла Қаҳҳор. Даҳшат. — Тошкент. 1987. Б. 329.

Bu yerda Olimjon dodho kinoya orqali Unsinning kambag'al oila farzandi ekaniga yashirin ishora qilmoqda va yana Unsindan g'azabda ekanligi anglashiladi.

Quyidagi milsolda so'zlovchining murojaatida salbiy ma'no ottenkalari aks etganini ko'ramiz.

*Men sizni ulgurji olganman, xonim, ko'tara savdo bo'lgansiz! Ko'zingiz ham, qo'lingiz ham, jilmayishingiz ham shunga kiradi*⁸!

Ushbu gapda **kesatiq va pichingga qorishiq** tagma'no: **"ya'ni sizga men xo'jayinman, hamma narsani mendan so'rab qiling"** tarzida suhbatdoshiga yetkazib bermoqda.

Murojaat shakli fikr yuritish bilan, tafakkur bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy - mantiqiy hodisa sifatida sotsial lingvistikaning obyektidir. Undalma esa struktural lingvistika, ya'ni tilning mexanizmini o'rganuvchi ichki tilshunoslikning obyeksi sanaladi. Bu har ikki soha aslida bir fanning ikki yo'nalishi bo'lib, o'zaro zich bog'langan. "Tilni tadqiq etishning sotsial va struktural aspektlari o'zaro aloqadordir. Tilni o'zining ichki qonunlari bo'yicha vazifa bajaruvchi tarixan tarkib topgan, ijtimoiylashgan munosabatlarning alohida sistemasi sifatida tadqiq etish ham mumkin; shuning bilan birga, u ijtimoiy hodisa sifatida ham o'rganilishni taqazo etadi. Tilning vazifa bajarish va taraqqiy etishida sotsial faktorlar rolini oshirish va ichki qonunlar ahamiyatini etarli baholamaslik mumkin emas. Ayni paytda ichki qonunlar ro'lini ortiqcha baholash va sotsial faktorlarni e'tiborga olmaslik ham qo'pol metodologik hamda nazariy xatolarga olib kelgan bo'lar edi"⁹. Til va nutq hodisalari o'rganilar ekan, sotsial va struktural lingvistika o'zaro hamkorlikda tadqiqot olib borishi maqsadga muvofiqdir.

Sotsial va ichki struktural aspektda o'rganish uchun murojaat shakli hamda undalma obyekt sifatida olinsa, dastlab ular orasidagi umumiyliklar va o'ziga xosliklar belgilanishi zarur. Ma'lumki, "undalma so'zlovchining nutqi qaratilgan

⁸ Abdulla Qahhor. Anor. – Toshkent: G'.G'ulom, 2014. – 13-bet.

⁹ Дешериев Ю.Д. Социальная лингвистика. К основам общей теории. М.: 1977. с. 212.

shaxsni bildiradi... Undalma II shaxsga qaratilgan bo'ladi. Undalmaning asosiy vazifasi nutqqa, aytilayotgan fikrga tinglovchining diqqatini tortishdir. Bu xususiyat undalmaning dialogik nutq uchun xarakterli ekanini ko'rsatadi»¹⁰.

Haqiqatan ham, undalma nutq qaratilgan II shaxsni ko'rsatadi, uning diqqatini tortadi va shuning uchun ham dialogik nutqqa xos. Murojaat ifodalovchi so'z ham mohiyatan shunday - grammatik aspektda yondashilsa, u undalmaga to'la mos tushadi. Lekin mazmunan murojaat obyektini ifodalovchi so'z, murojaat shakli sifatida, so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsnigina emas, har qanday obyektini ifodalaydi. Murojaat shaklining nutqdagi reallashuvi II shaxs bilan bog'lanadi. Biroq murojaat orqali uzatiladigan, anglatiladigan xabar - ma'lumot, fikr dastlab murojaat qiluvchi subyekt ongida hukm sifatida shakllanadi (aytsammi-aytmasammi), yuqorida aytib o'tilganidek, bu holat nutqda bevosita reallashmaydi, murojaatning faqat ikkinchi bosqichi nutqda o'z ifodasini topadi, reallashadi.

Nutq doimo ham bir shaxs yoki obyektga yo'naltirilgan bo'la bermaydi, u «bir necha shaxs, predmetlarga qaratilganda, uyushiq holda qo'llanishi mumkin. Masalan: Daraxtlar, bo'stonlar, sendan so'rayman. Lekin undalma o'ziga (undalmaga) bog'langan ajratilgan izohlovchi bilan kelganda, ba'zi jihati bilan uyushiq undalmaga o'xshab ko'rinsa ham, uyushiq bo'lmaydi: undalma birgina bo'ladi. Misollar: 1. Rossiya, Rossiya, mening Vatanim, men sening o'g'lingman, emasman mehmon. (H.O.) Rossiya Rossiya - undalma, mening Vatanim - ajratilgan izohlovchi. (undalmani aniqlab keladi) 2. Farzandim, shunqorim, senga yo'l bo'lsin? (F): farzandim - undalma, shunqorim - ajratilgan izohlovchi»¹¹.


Ma'lumki, undalma gapning boshqa bo'laklari bilan, bir gap ichida bo'lishiga qaramay, gapning biror bo'lagi vazifasida kelish yoki kelmasligi jihatidan yondashilsa, grammatik aloqaga kirishmaydi, biroq intonatsiya vositasida gapga bog'lanadi. Gapga mazmun jihatidan aloqador bo'ladi. Undalma bilan

¹⁰ Фуломов А.Ф., Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент, 1965. 183-6

¹¹ Фуломов А.Ф., Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент, 1965, 188-6

bogʻliq boʻlgan soʻzlar ham unga grammatik jihatdan emas, mazmunan aloqador boʻladi. Bundan koʻrinadiki, undalma gapning grammatik jihatdan bogʻliq - struktural elementi boʻlmasa ham, unga (gapga) grammatik jihatdan bogʻlanmasa ham, mazmunan undalma bilan bogʻlanadigan gap boʻlaklari bor. Bunga sabab shuki, undalmaga mazmunan bogʻlanayotgan gap boʻlaklari ajratilgan sanaladi. Ajratilgan boʻlaklar esa doimo nisbiy mustaqillikka ega boʻladi. Ana shu nisbiy mustaqillik ularni undalmaga mazmunan bogʻlaydi. Bogʻlangan soʻzlar undalmaning izohi sifatida belgilanadi. Bu grammatik tahlildir, lingvistik aspektdagi yondashuvdir.

Sof lingvistik tahlilda, gap haqidagi grammatik taʼlimotda tilning barcha struktural elementlariga til birligi sifatida qaraladi va shu jihatdan oʻrganiladi. Undalma grammatik aspektda oʻrganishning mahsuli sifatidagi lingvistik atamadir. Murojaat esa nutq bilan bogʻlanadi, u harakatdagi hodisani ataydi, hodisani harakatga bogʻlab izohlaydi. Murojaat, keng maʼnoda, harakat lingvistikasi materiali bilan aloqadordir. U tashqi lingvistika uchun obyektidir. «Rossiya, Rossiya, mening Vatanim, men sening oʻgʻlingman emasman mehmon» va «Farzandim, shunqorim, senga yoʻl boʻlsin» gaplarida «mening Vatanim» hamda «shunqorim» undalma emas, ajratilgan izohlovchi, deb belgilansa, ijtimoiy - mantiqiy jihatdan ular ham murojaat obyekti sanaladi, yoyiq izohli murojaat shakli sifatida belgilanadi. «Murojaat» soʻzi orqali anglashiladigan tushuncha ham shu fikrga mos tushadi. «Oʻzbek tilining izohli lugʻati»da quyidagicha izoh berilgan: Demak,



Murojaat bilan undalmaning ifodalanish usul va vositalarida ham, bir tomondan, umumiylik, ikkinchi tomondan, o'ziga xoslik, kuzatiladi. Undalma faqat lingvistik usul va vositalar orqali ifodalanadi. Murojaat shakli ham lingvistik usul va vositalar orqali ifodalanadi. Demak, har qanday undalma ayni paytda murojaat shakli hamdir. Lekin har qanday murojaat shakli undalma bo'la bermaydi. Chunki murojaat shakli lingvistik usul, vositalar orqali ifodalanganidek, ekstralingvistik usul hamda vositalar orqali ham ifodalanadi. Har ikkisi uchun ham lingvistik vositalarning nisbatan faol qo'llanadigan elementi so'z va so'z birikmasi:

*Do'stim, tingla yaproqchalarning,
Shivirlashi eshitilmoqda...
Do'sti g'arib, kel qo'lingni tut,
Yuragingda yoqay alanga*

(A.Oripov)

Keltirilgan misollarda undalma va murojaat shakli to'liq bir-biriga mos tushadi. Shuningdek, lingvistik vosita gap bo'lganda ham har ikki tushuncha bir-biri bilan teng keladi. Undalma gap bo'yicha darslikda keltirilgan quyidagi fikr murojaat shakliga ham tegishlidir. «Undalma mustaqil gap sifatida qo'llanishi ham mumkin. Bunday vaqtda uning intonatsiyasi ham boshqacha bo'ladi. Undalma bunday hollarda, undashdan tashqari, ta'na, ogohlantirish, kuchli iltimos, yalinish, norozilik, afsus, g'azab kabi ma'no ottenkalariga ham ega bo'ladi. Masalan: Bola kostryuldan sutning qaynab toshib ketganligini, lekin shu erda turgan Salima kitobga berilib ketib, buni payqamayotganini ko'rib hayajonlandi va qichqirdi: - Opa!»¹²

Struktural lingvistikada ham undalma, ham vokativ gap sifatida belgilangan «Opa!» ayni paytda, murojaat shaklidir.

Uyushgan undalmalar bilan ham murojaat shakli bir xil - uyushgan undalma, uyushgan murojaat shakli. Undalmaning ajratilgan izohlovchilari bilan murojaat shakli bir xil emas. Undalma, agar u uyushgan bo'lmasa, har bir gapda bitta

¹² Фуломов А.Ф., Аскарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент, 1965, 189-6

bo`ladi. Murojaat shakli esa izohli yoyiq murojaat shakli sifatida ham bo`ladi. Masalan, quyidagi parchada «may chechaklari» grammatik nuqtai nazardan undalmaning ajratilgan izohlovchisi sifatida belgilanadi:

Uch oy yo`lingizda yotdim ko`z tikib,

Ey, bahor bekasi - may chechaklari

(A. Oripov).

Murojaat shakli tushunchasidan kelib chiqib belgilansa, *may chechaklari* ham murojaat sanaladi - kengaytirilgan, konkretlashtirilgan, izohli yoyiq murojaat shakli. Struktural lingvistik planda esa undalma emas, balki uning ajratilgan izohlovchisidir.

Undalmaning ajratilgan izohlari nutqda shaklan ifodalangan bo`ladi. Murojaat shakli sifatida ham ifodalangan bo`ladi. Masalan, yuqoridagi misolda *may chechaklari* real ifodalangan. Faqat belgilanishda undalma bilan bog`liq holda uning (undalmaning) izohlovchisi, murojaat shakli bilan bog`liq holda izohli yoyiq murojaat shakli sifatida farqli belgilanadi. Lingvistik usul va vositalar bo`yicha undalma hamda murojaat shaklining navbatdagi farqlanishida undalma umuman topilmaydi, chunki u real ifodalangan bo`lmaydi. Shuning uchun ham bu murojaat shaklining o`zigagina xos xususiyat sifatida belgilanadi. Bu murojaat leksikoni bilan bog`lanadi. Ma`lumki, har bir tildagi so`zlar mazmuniy planda ma`lum tushunchaviy doiralarga, muayyan leksik -semantik maydonlarga tushadi. Mana shu ma`noda, har bir tilning o`ziga xos murojaat tushunchaviy maydoni ham mavjud bo`ladi va shu maydonga mansub so`zlar murojaat leksikonini tashkil etadi. O`zbek tilida ham shunday so`zlar mavjud va ular murojaat ifodalashi bilan boshqa leksik-semantik maydonga mansub so`zlardan farqlanadi. Iltimos, marhamat, kechiring-kechirasiz, ma`zur tuting - ma`zur tutasiz, yolboraman, so`rayman kabi qator so`zlar borki, ular murojaat qaratilgan obyektini ko`rsatuvchi so`zlar bevosita ishtirok etmasa, ya`ni nutqda real ifodalanmasa ham, mazmunan murojaatni anglata beradilar. Chunki u so`zlardagi lug`aviy ma`no o`zgaga qilingan murojaatni ifodalaydi. Masalan, «iltimos» so`zi izohli lug`atda ham shu

tarzda beriladi - «biror muddaoni qondirish haqida kimsaga qilingan murojaat, so`rov»<sup>13</sup> deb izohlanadi. Shuningdek, «iltijo» so`zi ham murojaat ma`nosi bilan bog`lanadi - «xudoga, ilohiy kuchga sig`inib panoh tilash. Ammo ularda murojaat semasining o`rni va mavqei turlicha. Biz quyida ularni farqlab ko`rsatishga harakat qilamiz. Umuman yalinib-yolvorib, o`tinib so`rash; o`tinchli iltimos»¹⁴. Murojaat shakli leksikoniga mansub ana shunday so`zlarning biri «marhabo» so`zidir:

Marhabo, ey, samovotning oltin yo`lchisi!

Nega beling shuncha bukik, charchab qoldingmi?

(Maqsud Shayxzoda)

Misolning birinchi misrasidagi «ey» va «samovatning oltin yo`lchisi» ham undalma, ham murojaat shaklidir, «marhabo» so`zi esa murojaat shakli sifatida ifoda topgan. «Kechirmoq» tushunchasi bilan bog`liq so`zlarda murojaat ifodalanishi:

Ma`zur tuting,-dedi Hakim so`z boshlab sekin,

Ba farmoni oliy keldim men ushbu yerga.

(A.Oripov).

Keltirilgan parchada undalma yo`q, biroq «ma`zur tuting» mazmunan murojaatni ifodalaydi. Shunday qilib, undalma va murojaat shaklining lingvistik ifodalanishida umumiy va o`ziga xos jihatlar mavjuddir. Umumiy tomon shundaki, undalma va murojaat shaklining ifodalanish vositalari so`z, so`z birikmasi bo`lib, bular mazmun va intonatsion jihatdan gapga bog`lanadilar, nutq qaratilgan obyektни ko`rsatadilar. Mazmun va intonatsion bog`lanish grammatik jihatdan gap bo`lagi darajasida bo`lmaydi. Sintaktik tahlil bo`yicha vokativ gap sifatida belgilanuvchi gap turi ham undalma va murojaat shakli uchun umumiydir. Murojaat shakli ifodalanishida undalmadan keskin farqlanuvchi lingvistik vositalar quyidagilardir:

¹³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик, биринчи том. М., 1981, 324-6.

¹⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик, биринчи том. М., 1981, 324-6.

1. Undalma (murojaat ma'nosini ifodalovchi kirishlar ham shu doirada ko'riladi).
2. Murojaat ifodalanishi uchun xoslangan maxsus leksikon.
3. Murojaat uchun xoslanmagan, ammo murojaat semasiga ega bo'la oladigan leksikon.
4. Murojaat uchun xoslangan gap shakllari.
5. Murojaat uchun xoslanmagan, ammo murojaat vazifasini ham bajaruvchi gap shakllari.

1.3. Muloqotda nolisoniy vositalarning pragmatik xususiyatlari

Muloqot jarayonida nolisoniy vositalarni shartli ravishda, uchga bo'linishini mumkin:

1. Ishora-harakat - jistikulyasion vositalar.
2. Tovush - fonatsion vositalar.
3. Rang vositalar.

Muloqot jarayonida nolisoniy vositalar ham asosiy rol o'ynaydi. Ma'lumotlarga qaraganda 80% axborot imo-ishoralar, mimika va pantomimika yordamida ifodalanadi. Nolisoniy vositalar nutqni to'ldiradi, muloqot ishtirokchilarining emotsional holatini aks ettiradi.

Badiiy asarlarda obraz nutqi orqali ishora qilingan yashirin ma'no nolisoniy vositalarda ham yuzaga chiqishi mumkin. Muallif bu vositalar ishlatilgan o'rinlarga izoh berib ketadi.

Muattar kuldi.

Muhayyoni shunaqa yaxshi ko'rasizmi?

Anvar yerga qaradi.

Bu yerda Anvarning yerga qarashi Muhayyoni sevishi haqida tasdiq fikrni beradi.

Naimjon joyiga o'tirayotib Muhayyoga ko'z tashladi. Muhayyo so'zlaganiga qulluq, so'zni o'rinlatganiga tasanno ma'nosida jilmayib bosh egib qo'ydi.

*Ne ko'z bilan ko'rsinki, qahvaxonaning kiraverishida Naimjon limonad ichib o'tirar edi. Salimjon "Muzqaymoq bahona, diydor g'animat ekan-da", degan ma'noda yalt etib muhayyoga qaradi*¹⁵.

Jonli so'zlashuv nutqida suhbat jarayonidagi ekstralingvistik vositalar vizual bo'lib, ular hech qanaqa izoh talab qilmaydi. Biroq og'zaki jonli nutq yozuvga ko'chganda, muallif - hikoya qiluvchi izohiga ehtiyoj tug'iladi. Bu izoh murojaat tarzini bayon etadi - jonlantirib «qiyofalantiradi», «suratlashtiradi». Ishora -harakat ana shunday vositalardan bo'lib, muallif - hikoyachi uni o'z izohi orqali ko'rsatadi -holatni «chizish» orqali konkretlashtiradi. «Til sistemasi hamisha har qanday fikr mazmunini, his-hayajonlarni va boshqa ichki tuyg'ularni ifodalash qudratiga ega, lekin shunga qaramay, aloqa-aralashuvida inson beixtiyor noverbal vositalardan foydalanadi»¹⁶.

So'zlovchi tomonidan ishora qilingan yashirin ma'no nolisoniy vositalarda ham yuzaga chiqishi mumkin. Muloqot jarayonida nolisoniy vositalar ham asosiy rol o'ynaydi. Muallif bu vositalar ishlatgan o'rinlarga izoh berib ketadi. Ma'lumotlarga qaraganda 80% axborot imo-ishoralar, mimika va pantomimika yordamida ifodalanadi. Nolisoniy vositalar nutqni to'ldiradi, muloqot ishtirokchilarining emotsional holatini aks ettiradi.

Ishora-harakat, ekstralingvistik vosita sifatida, xilma-xildir. Bulardan ko'plari inson tana a'zolari harakatlari bilan bog'lanadi. Bunda qo'l inson tana a'zolaridan eng faoli sanaladi:

«Zilzila o'n ikki yil avval bo'lgan, yigit». «Men senga o'ynab o'tiraman dedimmi?! -Sardor aka ko'lini paxsa qildi». - Uyog'ini so'rasang, kichik qaynisinglim boshqa vaqt qurib qolgandek tug'ib berdi yaqinda! Uni beshik

¹⁵ O'sha asar. – Toshkent: G'.G'ulom, 2014. – 13-bet.

¹⁶ Саидхонов М.М. Нoвeрбaл вoситaлaр.вa улaрнинг ўзбeк тилидa ифoдaлaниши. НДA. Т., 1993. 9-6

to'yisiyam meni gardanimda!». «Sendan so`rab o`tirarmidi, - Ikrom aka do`stining yelkasiga shapatiladi». (O`tkir Hoshimov)

Qo`l harakati bilan bog`liq bo`lgan yuqoridagi misollardan shu narsa ma'lum bo`ladiki, u harakatlar murojaatni to`ldirish uchun qo`llangan ko`makchi ekstralingvistik vositlardir. Qo`lning inson tana a`zolari ichida nisbatan faolligi shundaki, u ko`makchi vosita sifatida emas, murojaat ifodlashning sof ekstralingvistik vositasi sifatida ham vazifa bajaradi. So`z so`rash, biror narsa yoki voqea - hodisa haqida axborot-ma'lumot berish uchun murojaat qilinganda qo`l ko`tarishning o`zi etrali bo`ladi.

Inson tana a`zolaridan ko`z, qosh, qovoq, yuz, lab kabilar ham murojaat ifodalashning ekstralingvistik vositasi sifatida vazifa bajaradi: «Mening xo`jayinim «kobra» mas, shu! -- Safar aka qovog`ini uyib menga imo qildi» «U yarq etib boshini ko`tardi. Ma'yus kuldi...

-- ...Dard bor, bolam, akangni dardi bor...

(O`tkir Hoshimov)

Yuz va nigoh orqali ham murojaat to`ldiriladi.

Muallif - hikoyachi izohi murojaat nutqi oldidan murojaat bo`lib kelish hollari ham mavjud bo`lib, bu ko`proq xalq og`zaki ijodi namunalarida kuzatiladi: «Xiromon... momoga salom berib, uning qoshiga borib o`tridi. Momo «keldingmi ham, kelmadingmi ham» demadi. Salomiga alik olmadi (demak, murojaat - salomga javob bo`lmadi ~ Z.A.) Xiromon: «El yurtga dong`im ketgan bir ovozavor pari edim, bu ayg`omligiga momo meni beobro` qiz deb angladi chog`i», deb yuragi bo`z qilib, tura kelib, momoga zarda qilib, «na maqsading bor, momo?» deb, momoga achiqqanib arz qilib (demak, arz - murojaat qilib), momoning maqsadini, shaharning qamaganin sababini so`rab, Xiromon bir so`z dedi:


Xeliga kirgandir ey, momo, yoshing,

Shahar darvozaga sig`maydi boshing,

Men bilan, momo, bitarmi kengashing?

Mana men tururman Xiromon pari. (Gulixiromon)

Keltirilgan parchadagi muallif - hikoyachi izohi uyushiq izohdir: 1) yuragi bo`z qilib, 2) tura kelib, 3) momoga zarda qilib, 4) achchiqlanib arz qilib, 5) momoning maqsadini, shaharning qamaganin sababini so`rab muallif - hikoyachi izohidir. Keltirilgan izohlar «bir so`z dedi» ga to`g`ridan - to`g`ri bog`lana oladi.



Muallif – hikoyachi izohlarining birinchisi psixologik, ikkinchisi harakat, uchinchisi psixologik harakat ekstralingvistik vositalar orqali ifodalangan izoh sanalsa, qolganlari lingvistik vositalar orqali ifodalangan izohlardir.

Yana shuni ham ta`kidlash kerakki, muallif – hikoyachi izohi o`rnida bevosita murojaat qiluvchi subyektning «murojaatga kirish» murojaat tipidagi izohi bo`lishi ham mumkin. Xiromonning yuqoridagi murojaatidan so`ng «uyg`ongan momo» Xiromonga murojaat qildi. Lekin murojaati oldidan so`rov – surishtiruv va izoh mazmunli murojaati bor:

«Shunda momosi ko`zini ochib, qovog`in uyib:

-- Xiromon senmi? Nima gaplar chiqyapti hali tilingdan? Ayrilging kelyaptimi G`ulg`ul elingdan. Mochag`ardan mochag`arga solasan, bir ish kela turgandek sening qo`lingdan. Chin oshig`ing tokay kuysin xelingdan? Qachon quchoqlaydi nozli belingdan? - deysan aylanayin... Oraliqda men bo`lib qoldim danakar, bir o`g`lim bor, sendan qizim, umidvor. Sabab shuldir, keng shahringni qildim tor, ikki, bolam, senga gapim bor. Men aytayin quloq solib tinglagin:

Qatorning yarshig`i nor bilan,

U bachchaning kayfi kelar yor bilan.

Momong ishi yo`qdir nomus-or bilan,

Menam davron surdim o`n to`rt yor bilan»

(Gulixiromon)

Agar yozma dramaturgiyada muallif - xikoyachi dramaturgning izohi kavs ichidagi va tashidagi kichik-kichik remarkalarda berilsa, xalq dostonlarida muallif-xikoyachi-baxshilar izohi an'anaviy «bir soʻz dedi» birikmasida oldin keladi har ikki holat ham barqaror xolga kelib qat'iylashgan.

Muallif - hikoyachi - baxshilar izohi an'anaviy «bir soʻz dedi» birikmasidan oldin keladi. Har ikki xolat ham barqaror holga kirib qat'iylashgan.

Xalq dostonlarida «bir soʻz» deyishdan oldin shu aytiladigan «bir soʻz»ni tinglash uchun murojaat qilinadi. Bu murojaat ekstralingvistik murojaat shakli boʻlib, muallif - hikoyachining tilidan «qarab» soʻzi orqali ifodalanadi - qarab, ya'ni murojaat qilib. «Qarab» ekstralingvistik usuldagi ishora-harakat vositasidir: «Alplarning enasi Surxayl maston shohga qarab bir soʻz aytib turgan ekan:

Shohim, senga arzim bayon qilayin...»

(Alpomish)

Shuningdek, muallif - hikoyachi izohida ham lingvistik va ekstralingvistik vositalar mavjud boʻlishi hollari mavjud boʻlib, bu usul ham barqarorlashgan!

«... Boysaribiyga zakot degan ran nihoyatda oʻtib ketgan ekan: «Endi biz oʻz elimizda sigindi boʻlib, oʻz akamizga oʻzimiz zakot berib yuradigan boʻlsak, bu elda bizning turgʻiligimiz qolmadi», deb un ming uyli Qoʻngʻirot eliga qarab: «Endigi maslahat nima boʻldi» deb, bir soʻz aytib turgan ekan», «Koʻkaman Koʻkaldoshga qarab, sir - ahvolini bildirib, bir soʻz aytib turgan ekan». *(Alpomish)*

Jumlalardagi «...turgʻiligimiz qolmadi», «maslahat nima boʻldi», «sir-ahvolini bildirib» ifodalari «qarab» soʻzi orqali ifodalangan tushuncha boʻyicha bajariladigan harakat ekstralingvistik vosita oldidan kelib, uni reallashtiruvchi, izohlovchi ifodalardir. Xalq ogʻzaki ijodida faol boʻlgan bu usul yozma adabiyotlarda ham mavjud: «Dadam aravachaga oʻtirib, meni bagʻriga olarkan, cholgʻa qaradi.

— *Yoʻl olismi, Oqsoqol?*

— *Olis... Noʻgʻayqoʻrgʻonga boramiz!»*

(Oʻtkir Hoshimov)

Murojaat shaklining ishora-harakat ekstralingvistik vositasi orqali murojaat qilinganda, murojaat obyekti u murojaatga o'z harakati bilan javob beradi. Bunda so'z ishtirok etmaydi. Qosh harakati asosidagi ishora asosan nutqiy jarayonni to'ldirib, uning ta'sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi. Ba'zi o'rinlarda qosh harakati kompetitsion vazifa bajarib keladi. Shunday qosh bilan bog'liq vositalardan bo'lgan "qosh uchirish" ko'proq ayollar nutqida kuzatiladi.

Masalan, Zuhra Tohir yo'liga gul sochish uchun qizlarga, chiqib ketishlari uchun kanizlarga murojaat qiladi:

Zuhra ishorasi bilan qizlar Tohir yo'liga gul sochadilar,... kanizlar chiqa boshlaydilar; Qorabotir ishorasi bilan sipohlar Tohir ustiga tashlanadilar; Zuhra so'z bilan murojaat yetmaydi. (Uning ishorasi bilan raqs boshlanadi); Xon ishorasi bilan olib chiqa boshlaganlarida Zuhra kiradi . (Sobir Abdulla)

Tiz cho'kish, oyog'iga yiqilish kabi ishora-harakatlar mavjudki, ular benihoya ulug' sanalgan murojaat obyektlariga bo'lgan munosabatlarini ko'rsatadi. Masalan, Tohir bolani xonga topshirish uchun murojaat qilganda uning oyog'iga yiqiladi: Tohir yo'rgakda bola ko'tarib kirib, xon oyog'iga yiqiladi va bolani tutadi.

Tohir:

Bir o'g'il farzand ko'rib, keltirdi bandang xushxabar» «Abulqosim kelib, Tohir oyog'iga o'zini tashlaydi.

Abulqosim:

Kechir bizni! Gunohkormiz biz senga,

Qanday qilib boqaylik biz yuzingga?

Ashurmat(o'zini tashlab):

Kechir bizni!

Yulduz chopib kirib, o'zini Zuhraga tashlaydi, uning orqasidan Kamar kirib, o'zini tashlaydi.

Ma'lum bir xatti-harakat ikkinchi obyektini ham shunday javob qaytarishga undagandi:

Quloch yozish harakati ko`rishish uchun murojaatdir.

Hofiz (tanib, quloch yozadi):

Tohirjon!...Etdim senga,

Go`yo qon yugurdi tanaga.

Qodir:

Oh!...Ustozim Tohirjon.

Quchoqlashadilar.

(Sobir Abdulla)

Ishora - harakat ekstralingvistik murojaatda qo`l ko`tarish harakati orqali, ta'zim qilish harakati orqali ham murojaat qilinadi.

Bu qo`l cho`zish jon talvasasidagi Zuhraning atrofga murojaati edi. Lekin u konkret Tohirga murojaat bo`lib shakllanadi. Ishora -harakat ekstralingvistik vositalar she'riy shakldagi nutq ko`rinishida nisbatan tez sur'atli, shiddatkor bo`ladi. Chunki she'riy, nutq birinchidan, aniq-ravshan o`lchamga tushgan, fikrni his-hayajon boshqaradigan tuyg`u nutqidir. Quyida keltiriladigan to`rtlikning ikkinchi misrasi kinoya-so`roq hamda buyruq mazmunidagi murojaat sanalsa, uchinchi misrasi ishorat-harakatni ko`rsatadi:

Malikaning ko`zlarida chaqnadi kibr,

Dedi: -- Nechuk intilibdi bu zot ziyoga?!

Qiz eshikni yopar ekan zarb bilan keskir,

-- Toqatim yuk meni, -- dedi, — sendek Mirzoga.

(A. Oripov).

Harakat - jestikulyasiya, odatda, savol murojaatlarda ko`proq qo`llanadi:

-- Ertalab bir joyga bormoqchiydim. Baykal ochilarkan.

-- A?

Ammamning qulog`i (jir bo`lgani uchun gapimni yaxshi eshitmadimi, suvga tushgan toshdek xira ko`zlarini pirpiratib ko`zlarimga tikildi. -- Qanaqa haykal?

Parchadagi mavhum murojaat bo`lib, bu murojaat qanaqa haykal so`roq murojaati bilan konkret tus olgan va unga noma'lum soldat haykali javob bo`lgan. Agar *ko`zga tikilmoq, qanaqa haykal* so`roq murojaati bilan konkretlashtirilmaganda, avvalgi gapning takrori bo`lar edi: *haykal ochilarkan?*

Bu parchada *a* fonatsion, *ko`zga tikilmoq* harakat jestikulyasion murojaat shaklidir.

Harakat - jestikulyasion murojaat shakli konkret jumla bilan to`ldirilmasligi ham mumkin:

Qo`lidagi tugilgan tokni laganga tashlab, ko`zimga termildi... Qarasam xafa bo`lyapti.

-- Oboraman, amma, oboraman! - dedim yupatib.

(O`tkir Hoshimov)

Odatda, fikr almashish va suhbat jarayonida so`zlovchining turli qo`shimcha harakatlarga ehtiyoj bo`lmaydi. Bunday ehtiyoj so`zlovchining psixologik muvozanati izdan chiqqan hollarda vujudga keladi. Psixologik muvozanat yo ijobiy tuyg`ular bilan, yoki salbiy hissiyotlar qo`zg`alishi bilan buziladi va, buning natijasida, jestikulyasiya vositalari fikr ifodalashning emotsional jihatdan to`ldiruvchisi bo`lib keladi. Nutq jarayonidagi psixologik holatning ana shu jihatlari tufayli ba`zi xalqlarda tana harakatlarining rasmiy qoidalari vujudga kelgan va shakllangan.

IKKINCHI BOB. MULOQOTDA PRAGMATIK MA'NONING YUZAGA CHIQISHI

Tilning inson hayotida tutgan o'rnini beqiyos. Tilsiz insonlar bir – birini tushunish, voqelikni, dunyoni o'zlashtirish, o'zaro fikrlash qobiliyatiga ega bo'lmaydi. Aloqa-aralashuv vositasi ekanligi tilning birlamchi vazifasidir. Har qanday tilning markazida inson turadi va aloqa-aralashuv adresant va adresat o'rtasidagi munosabatlardan tarkib topadi. Shuning uchun ham tilni ro'yobga chiqarayotgan inson bilan birga o'rganishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. So'zlovchi va tinglovchi o'zi qurshab turgan olam haqidagi universal bilimlari va til haqidagi ko'nikmalari asosida o'zaro aloqaga kirishadi va fikr almashadi. Muloqot jarayonida kommunikantlarning umumiy bilish manbaiga ega bo'lishi bevosita ifodalangan axborotning so'zlovchilar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Kommunikativ maqsad pragmatik tahlilning asosiy tarkibiy qismidir. Maqsadning samarali yoki samarasiz natijasi – so'zlovchining tildan foydalanish layoqati, nutqiy aktlar, shuningdek, tilning ekspressiv-stilistik va obrazli imkoniyatlari hamda noverbal yordamchi vositalarni tanlash mahorati bilan bog'liq. Kommunikativ maqsadning amalga oshirishida nutqiy vaziyat muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ maqsadga erishish uchun so'zlovchi o'z jumlasini shunday tuzishi lozimki, uning uchun eng muhim bo'lgan xabarni ta'kidlash birinchi navbatda turishi lozim. Shunga ko'ra so'zlovchi hamsuhbatida kutilgan reaksiya qo'zg'atadi, ya'ni unga ta'sir o'tkazadi.

Axborotning to'g'ri tushunilishi uchun so'zlashuvchilarning til haqidagi bilimidan tashqari, tinglovchining olam haqidagi bilimi, jumla qo'llanayotgan ijtimoiy holat haqidagi bilimi, so'zlash jarayonida so'zlashuvchilar ruhiyati haqidagi bilimi va boshqa bilimlarini ham qo'shish kerak bo'ladi. Axborotni tushunish jarayonida yuqoridagi bilimlarning barchasi teng darajada kerak bo'ladi. Shuning uchun faqat bu bilimlarning o'zaro munosabatini hisobga olgandagina, biz nutqiy jarayonning mohiyatini anglashga yaqinlashgan bo'lamiz¹⁷. Bir qator

¹⁷ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент, 1995. – Б.8.

gaplarda yuza ma'no ostiga tagma'no yashiringan bo'ladi. Ayniqsa, ana shunday sharoitda tinglovchiga tilni tushunish ko'nikmasi kerak bo'ladi. Agar mazkur ko'nikmaga ega bo'lmasa, matnni to'g'ri tushunolmaydi. Shu bilan birga, alohida nutq parchasini butundan uzib olinganda ham, bu nutq parchasidan so'zlovchining maqsadini to'g'ri tushunib bo'lmaydi. Shuning uchun matnni butun va bo'lak munosabatini e'tiborga olgan holda o'rganish bo'lak mazmunini to'g'ri tushunishga yordam beradi.

Nutqiy muloqot jarayoni, insonning nutqiy faoliyati uning rang-barang, chunonchi: ruhiy, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va h. bilan bog'liq holda amalga oshadi. Nutqiy muloqot jarayoni ijtimoiy va tabiiy jarayon bo'lganligi sababli, pragmatikada nutqiy muloqot jarayoni inson faoliyatining o'nlab qirralari bilan bog'liqlikda o'rganiladi. Shuning uchun sistem tilshunoslik til tizimini, til sistemasini o'rgansa, pragmatika muloqot, o'zaro fikr almashuv, kommunikatsiya, aloqa-aralashuv, so'zlashuv tizimini o'rganadi. Nutq muloqot jarayoniga tizim sifatida yondashish pragmatikaning asosiy tadqiq manbai va usulidir. Pragmatika muayyan vaziyatda aytilgan informatsiyaning tinglovchiga ta'sirini o'rganadi.

Pragmalingivistika nutqiy muloqotnig samarali kechishini yaxlit bir tizim sifatida - bu jarayonning barcha lisoniy va nolisoniy omillari bilan uzviy bog'liqlikda, hamkorlikda o'rganuvchi fan hisoblanadi.

Pragmatikaning lug'aviy ma'nosi yunoncha «pragma» so'zidan tarjima qilinganda ish, harakat ma'nolarini bildiradi. Til o'zaro muloqotga kirishilganda haratda bo'ladi. Demak, pragmatika nutqiy muloqot jarayonida sodir bo'lgan holatlarni o'rganadi.

Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o'rganuvchi tilshunoslikning tadqiqot doirasidir. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibiga so'zlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi o'zaro munosabatiga bog'liq masalalar majmui kiradi.

Tinglovchi axborotni eshitish jarayonida unda axborotga nisbatan muayyan bir munosabat hosil bo`ladi. Bu munosabat pragmatik munosabat deb yuritiladi. Bunday munosabatlar turlicha xarakterga ega bo`lishi mumkin. Ular ko`pincha intellektual xarakterga ega bo`lib, u tinglovchi (retseptor) uchun qiziq tuyulmaydigan, unga taalluqli bo`lmagan axborotlardan tashkil topgan bo`lishi va ayni paytda qabul qilingan axborot unga juda kuchli emotsional ta'sir qilib, uni muayyan bir niyatlarga yo`naltirishi ham mumkin. Axborot (matn)ning qabul qiluvchida uyg`otgan bunday kommunikativ ta'siri, ya'ni pragmatik munosabati matnning pragmatik aspekti yoki salohiyati deb ataladi¹⁸.

Matnning pragmatik salohiyatini muallif tomonidan maxsus tanlangan tilning ifoda vositalari: leksik va sintaktik, shuningdek stilistik birliklar tashkil qiladi. So`zlovchi (ijodkor) o`zining kommunikativ maqsadiga mos keluvchi axborotni yanada ifodalibroq, yanada ta'sirchanroq qiladigan til vositalaridan tanlaydi. Natijada bunday maqsadda yaratilgan matn muayyan pragmatik salohiyatga ega bo`ladi va ular axborot qabul qiluvchiga (retseptorga) kommunikativ ta'sir qiladi. Matnning pragmatik salohiyati axborotning mazmuni va shakli bilan ifodalanib, ular avvaldan tilda mavjud bo`lgan ifoda vositalaridir va muallif ulardan faqat o`rinli foydalanadi, xolos.

Bir xil qo`shiq turli kishilarga turlicha ta'sir qilganidek, retseptorning qabul qilayotgan axborotiga munosabati ham turlicha bo`ladi. Axborot qabul qiluvchining axborotga nisbatan paydo bo`ladigan pragmatik munosabatlari nafaqat matnga, balki qabul qiluvchi - retseptorning shaxsiga, fon bilimlariga, hayotiy tajribalariga, ruhiy holatiga va boshqa shu kabi xususiyatlariga ham bog`liqdir. Demak, matnning pragmatik va kommunikativ ta'siri turli saviyadagi kishilarga turlicha ta'sir qilish orqali ham belgilanishi mumkin.

Kommunikativ faoliyat turli xildagi bilimlarga ega bo`lishni talab qiladi, bulardan, masalan, lisoniy bilim til tizimi tuzilishi bilan bog`liq bo`lsa, qomusiy bilim esa voqelikni aks ettiradi va nihoyat, interaktiv bilim o`zaro munosabat

¹⁸ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т.: 2008. – Б. 108.

asosida turgan, ijtimoiy guruh uchun umumiy boʻlgan qoidalar toʻplamini bilishni taqozo etadi.

Shunday malakaga ega boʻlmagan shaxs muloqotda hech qanday samaraga erisha olmaydi. Nutqiy muloqotda axborot uzatish «yuki», soʻzsiz, lisoniy birliklar «yelkasi»ga tushsa oʻsha lisoniy birliklar «yelkasi»dagi axborotni retseptorga toʻgʻri yetkazish soʻzlovchi zimmasidagi yukdir, ammo shaxslararo munosabat normasini, milliy-madaniy qadriyatlar tizimini egallamasdan turib, bu vazifani toʻlaonli amalga oshirishning imkoni yoʻq.

Soʻzlovchi va tinglovchi munosabati nutqiy muloqot sharoitida yuzaga keladi, nutqiy harakat muloqot matnini talab qiladi va shu muloqot kontekstida mazmunga ega boʻladi. Muloqot yuzaga kelishi uchun muhit boʻlishi darkor. Muhit, oʻz navbatida, ijtimoiy xususiyatga ega boʻlib, u ijtimoiy qatlam, guruhning madaniyati bilan bogʻliq holda namoyon boʻladi. Ushbu guruhdagilar har xil anglashilmovchiliklar, maʼnoviy ikkiyoqlamalik, noaniqliklarni bartaraf etish imkonini beradigan umumiy bilim zahirasi hamda muloqotning mavaffaqiyatini taʼminlovchi qoidalardan foydalanish malakasiga ega boʻlishadi. Muloqotdoshlarning bir-birini tushunishi lisoniy kommunikatsiyaning asosiy shartidir. Masalan, «Eshikni yoping», «Sovuq», «Chanqadim» jumllarini «Tashqarida shamol boʻlayotganligi», «Issiqroq kiyish» yoki «Choy damlash kerakligi» kabi mazmunlarida anglash uchun oʻzaro umumiy va oldindan maʼlum boʻlgan maʼlumotga ega boʻlish kerak. Ammo bunday holatda «orqa fon»da turadigan maʼno oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi, balki maʼlum bir muloqot davomida yoki kontekstda shakllanadi.

Muloqotning chegarasi nutq subyektining almashinishi bilan belgilanadi. Soʻzlovchi ogʻziga kelganini emas, aksincha, nutqiy vaziyat talab etayotgan gapni aytadi. Gaplar nutq jarayonida yaratilmaydi, soʻzlovchi tayyor til materiallari (soʻzlar va gap qoliplari)dan oʻzi yetkazmoqchi boʻlgan mazmunni ifodalash uchun foydalanadi. Yaʼni ayni paytda kechayotgan suhbat til anʼanalarining bevosita davomi demakdir. Muloqotda soʻzlovchi shaxsiyati – insoniy fazilat va nuqsonlari,

fe'l-xo'yi, intellektual saviyasi, ma'naviy qiyofasi va shu kabilar muhri bor. Biroq bular muloqotda to'g'idan to'g'ri emas, balki nutq momenti orqali, undagi lingivistik va ekstralingivistik omillar prizmasidan o'tib akslanadi. Demak, muloqotning mazmuni uni kim va qanday vaziyatda aytayotganiga bog'liq konkretlashadi. So'zlovchi muloqotda aks etgan ruhiy holati tom ma'noda betakrordir. Zero, u ayni shu holatga qayta kira olmaydi, gapini ayni shu mazmun va ruhda qayta olmaydi. Qadimdan "ifoda etilgan fikr yolg'on" degan naql keladi. Buning asosi inson o'ylab va yo his qilib turganini so'z bilan tugal ifodalashga ojizligi, demakki, o'yidagi bilan tilidagining farq qilishidadir. Ya'ni ifoda hamisha so'zlovchi ifodalashni istaganidan ko'ra tor, chaladir. Nutqiy muloqot payti tinglovchi buni his qilib turadi, ifodadagi kemtiklarni (ekstralingivistik omillarga diqqat qilish, intonatsiyaga e'tibor, qisman, tasavvurini ishga solish asnosida) to'ldirib olish payida bo'ladi.

Muayyan vaziyatda aytilgan gap suhbat ishtirokchilarining ayrimlariga bir, qolganlariga boshqa bir ma'noni yetkazishi mumkin. Masalan, suhbat jarayonida biri ishtirokchilarning bari taniydigan odam haqida "Ahmad aka xo'roz-da!" deb aytdi. Tinglovchilarning birisi cho'zib "ha-a", tag'in birisi bosh iring'ab, boshqasi imo-yu so'zsiz ushbu bahoni ma'qulladi. Qizig'i, bu o'rinda chinakam axborot almashinuvi amalga oshmadi, chunki birinchi tinglovchi "Ahmad aka tezda urushib ketadigan, janjalkash odam" deb biladi; ikkinchisi "Ahmad aka ayollarga o'chroq, "yuradigan odam"ligidan xabardor, uchinchisi "Ahmad aka - mard odam" ekaniga amin bo'lgan, holbuki, so'zlovchi "Ahmad aka ayollar birigadasi boshlig'i" ekanini nazarda tutgandi, xolos. Albatta, tinglovchilar anglagan mazmunlarda subyektivlik ustuvor, biroq ular obyektiv asos – aytilgan gapdan o'sib chiqayotirki, ularni inkor qilib bo'lmaydi.

Ayrim hollarda turlicha tushinish imkoniyati so'zlovchi tomonidan atayin yaratiladi. Masalan, birov bahorda qaytarish sharti bilan qarz bergan odam ishtirok etayotgan suhbatda "Mana, bahor ham keldi!" desa, buni qarzidor "Qarzini qaytarish vaqti keldi!" ma'nosida, boshqalar o'z ma'nosida tushunadilar. Nutqiy

muloqotga kirishayotgan soʻzlovchi bitta gap bilan adresatlarga turlicha maʼnolar yetkazishida atayinlik (albatta, bunday vaziyat tabiiy ravishda ham yuzaga kelishi mumkin “*Bahor keldi*”) bor, yaʼni soʻzlovchida maqsadli ravishda shu tarzda gapirish imkoniyati bor¹⁹.

Yoki auditoriyada maʼruza qilyatgan oʻqituvchi talabalardan biriga *doʻppizi olib qoʻying* deya murojaat qildi. Boshqa talabalar esa hayron. Chunki auditoriyada hech kim doʻppi kiymagan. Bu gapning maʼnosini faqat ogʻzida nimadir chaynayotgan talaba va oʻqituvchigagina maʼlum. Oʻqituvchi talabaga shu narsani olib qoʻying deya xitob qildi. Muloqotga kirishayotgan shaxsning asosiy maqsadi axborotni uzatish emas, balki tinglovchini ushbu maqsadni anglashga undashdir. Aynan shuning uchun ham kommunikativ birlik mazmuni voqelik haqidagi xabar bilan chegaralanib qolmaydi, balki propozitsiya mazmuniga qoʻshimcha maʼnolarni ham ifodalaydi.

2.1. Muloqot shakllarida pragmatik maʼnoning ifodalanishi

Muloqot – ikki va undan ortiq kishilar oʻrtasida bilish yoki baholash tarzidagi axborot almashishda namoyon boʻluvchi oʻzaro taʼsirdir. Til muloqotga kirishuvchilar oʻrtasida aloqa bogʻlashni taʼminlaydi. Muloqot jarayoni nutqiy faoliyatning oʻzidir. Muloqot jarayoni va nutq faoliyati oʻzaro bogʻliqdir. Muloqotning hayotimizdagi shakl va koʻrinishlari, uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlariga mos keladigan, oʻsha vaziyatlardan kelib chiqadigan koʻrinishlari va turlari turlichadir. Lekin umumiy holda har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda boʻladi. Bu faoliyat bevosita “yuzma-yuz” boʻlishi; u yoki texnik vositalar (telefon, telegraf va boshqalar) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki doʻstona boʻlishi; subyekt-subyekt tipli (dialogik, sheriklik) yoki subyekt-obyektli (monologik) boʻlishi mumkinligini professor V. Karimova taʼkidlaydi.

¹⁹ Куронов Д. Талкин имконлари. – Т.;, 2015. –Б. 4-9.

Pragmatika nutq ishtirokchilari va muayyan vaziyatda aytilgan informatsiyaning tinglovchiga ta'sirini o'rganadi. Pragmatika nutqiy muloqotning samarali kechishini yaxlit bir tizim sifatida - bu jarayonning barcha lisoniy va nolisoniy omillari bilan uzviy bog'liqlikda, hamkorlikda o'rganuvchi fan hisoblanadi.

Pragmatikaning lug'aviy ma'nosi yunoncha «pragma» so'zidan tarjima qilinganda ish, harakat ma'nolarini bildiradi. Til o'zaro muloqotga kirishilganda harakatda bo'ladi. Demak, pragmatika nutqiy muloqot jarayonida sodir bo'lgan holatlarni o'rganadi.

Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o'rganuvchi tilshunoslikning tadqiqot doirasidir. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibiga so'zlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi o'zaro munosabatiga bog'liq masalalar majmui kiradi. Muloqotning turli shakllari yoki bosqichlari bo'lib biz badiiy asarlardan olingan misollar orqali ya'ni dialogik muloqot shakli, obrazning ichki nutqi orqali, muallifning o'zi keltirgan izohlar, nolisoniy vositalar orqali ifodalangan pragmatik hodisalarni tadqiqot obyekti qilib oldik.

Matnda so'zlovchi nazarda tutgan axborot har doim ham verbal ifoda tarkibida to'liq ma'noda oshkora bayonga ega bo'lmaydi. Muayyan axborot tinglovchiga to'liq yetkazilishida bizga nolisoniy vositalar ham yordam beradi.

Muloqot jarayoni to'g'ri amalga oshishi uchun nutq ishtirokchilari olamda mavjud bo'lgan narsa, predmet, hodisalar nomini bilishi hamda ma'lum grammatik qonun-qoidalar bilan to'liq tanish bo'lishining o'zi kifoya qilmaydi. So'zlovchi nutqiy vaziyat tushunchasi mohiyatini ham bilishi kerak. Bu so'zlovchi bayon qilmoqchi bo'lgan kommunikativ niyatning to'g'ri ifodalanishida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Pragmatikaning xususiy masalalari nutq subyekti, nutq obyekti, nutq vaziyati bilan bog'liq hodisalarni tadqiq etadi. Ko'p hollarda so'zlovchi o'zi uchun muhim bo'lgan axborot ko'rinishlaridan birini oshkora bayon qilishni istamaganligi uchun uni matn ichiga tagma'no sifatida joylashtiradi. Pragmatika nutqiy muloqot jarayonida ifodalangan yashirin mazmun

ko`rinishlarini tadqiq etadi. Nutqiy ifodaning yashirin mazmuni o`zining quyidagi ko`rinishlariga ega: presuppozitsiya, tagma'no va uning ko`rinishlari bo`lgan kinoya, piching, kesatiq va pragmatik to'siq.

Bugungi kunda gapning shakliy tuzilishida bevosita ifodalanmaydigan, ammo, uning semantik qurilishida ishtirok etadigan semantik elementlar tilshunoslar diqqatini o`ziga jalb qilib kelmoqda. Bu hodisalar bevosita nutq ishtirokchilari bilan bog`liq. Chunki har bir nutq ishtirokchisi o`z dunyoqarashi, saviyasidan kelib chiqib muloqot jarayoniga kirishadi. Nutq ishtirokchilari borliq haqida qancha chuqur bilimga ega bo`lsa, o`zlari ko`zda tutgan axborotning mazmunini to`g`ri tushunadilar. Bu hodisalarni badiiy matn misolida ko`rib chiqamiz. Lingivistikaga oid nazariy adabiyotlarda matn semantik tuzilishini murakkablashtiruvchi presuppozitsiya hodisasiga juda ko`plab nazariy va amaliy ma'lumotlar berilgan. Presuppozitsiya pragmatikaning xususiy masalalaridan hisoblanadi. Presuppozitsiya bilan birgalikda tagma'no ham matnning semantik tuzilishini murakkablashtiruvchi hodisa hisoblanadi. O`z navbatida tagma'no ham pragmatikaning o`rganish obyekti hisoblanadi. Quyida presuppozitsiya va tagma'no tushunchalarini misollar bilan yoritib o`tamiz. Presuppozitsiya gapning propozitsiyasini tahlil qilish orqali aniqlansa, tagma'no gapning subyekti bilan bog`liqlikda aniqlanadi. Muayyan gapning mazmuni propozitsiya orqali oydinlashadi. Propozitsiya ma'lum axborotni ifoda etuvchi hukm bo`lib, u o`sha vaziyatdagi axborot ko`rinishi haqidagi hukmdir. Presuppozitsiya esa o`sha vaziyatdagi hukm mantiqiy tahlili bilan aloqador avvalgi hukm – mazmunidir. Presuppozitsiya matn mazmunini murakkablashtiradi. Nutqiy muloqot ishtirokchilari grammatik shakllar orqali ifodalanayotgan axborotni tushunishlari uchun presuppozitsiya yordam beradi.

*Bir muddat ayolga daraxt bolalaridan ham yaqinroq va qadrliroqdek tuyuldi*²⁰. Ushbu jumlada ayolning farzandlari bemehr ekanligi haqida tushuncha orqali presuppozitsiyaga ega bo`lamiz.

²⁰ Мюллер Э. Дарахт // Ёшлик. 2013. 52-бет.

Presuppozitsiya esa istalgan matn semantik tuzilishining mantiqiy tahlili yordamida aniqlanishi mumkin. Presuppozitsiya ma'lum matn ifodalayotgan propozitsiyaning to'g'ri tushinilishiga imkon beradigan so'zlovchilar o'rtasidagi "bilishning umumiy fondi", "oldindan bilishning jami" sifatida belgilanadi²¹. Tagma'no ham "Bilishning umumiy fondi" asosida aniqlanadi, biroq u presuppozitsiya singari propozitsiya ta'sirida emas, balki so'zlashuvchilar tomonidan avval sodir etilgan harakat, faoliyatga yoki kelgusida yuz berishi mumkin bo'lgan nomatniy ma'nolarga ishora qiladi"²².

So'zlovchi tomonidan bayon qilingan axborotning qaysi ko'rinishi yashirin shaklda berilishi so'zlovchi pozitsiyasi bilan bog'liq. Buni his qilish va ilg'ab olish tinglovchining individual ruhiy holati bilan bog'liq.

Siz ham jirafa ekansiz-da. Keltirilgan misolda tagma'no ifodalangan bo'lib, og'zaki nutqdan, ya'ni dugonalarining do'stona suhbatlaridan olingan. Dialogik nutq shakli. Jirafaning bo'yni uzun bo'lgani uchun yangilikni atrofida gilardan keyin eshitadi deya nisbat beriladi. Shuning uchun biror narsani hammadan keyin eshituvchi insonga nisbatan motiv qilib olingan.

Tagma'no pragmatikaning xususiy masalalaridan biridir. Tagma'no propozitsiya orqali ishora qilinuvchi hukm ichidagi hukmdir. Tagma'no nutq ishtirokchilari tomonidan ochiq shaklda ifoda etib bo'lmaydigan matn ostidagi ichki yashirin fikrdir. Yashirin aytilishi lozim bo'lgan fikrdan kamida bir kishi bexabar bo'ladi. Biz ishimiz davomida muloqot jarayonida ifodalangan tagma'noning turli ko'rinishlariga ko'proq tayandik. Tagma'noning muhim xususiyatlaridan biri ifodaning yashirin holatda bo'lishidir. Bunda ishora qiluvchi vosita ishtirok etadi. Mana shu ishora vositasining muhim belgilariga qarab tagma'no oydinlashadi. Tagma'noning bunday ko'rinishlari so'zlovchi tinglovchini ma'lum predmatlarga o'xshatish asosida o'zi nazarda tutgan axborot ko'rinishiga ishora qiladi. Natijada matn tarkibida metaforik tagma'no yuzaga keladi.

²¹Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент, 1992.

²²Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, 2013.

Xi-i-im kelyapsiz toshbaqaga mini-i-ib. Bu misol domla va talabaning auditoriyadagi muloqotidan olingan. Ushbu jumlada metaforik tagma'no mavjud bo'lib, u "domla talabasini toshbaqa sekin yurgani uchun hamma yerga kech qolib boradi, sen ham immillaganing uchun darsga kech kelding" mazmunidan iboratdir.

Metaforik tagma'noning matndagi ifodasi so'zlovchining ichki maqsadi bilan bog'liq bo'lib, fikrning ta'sir etish darajasini kuchaytiradi. Tinglovchining his-tuyg'usiga ta'sir etish va yangi nutq vaziyatini yuzaga chiqarishning boshlang'ich nuqtasi sifatida namoyon bo'ladi.

Endi badiiy asarlardan olingan misollarni ham ko'rib o'tamiz. Muloqotning dialogik shaklida yashirin mazmun yaqqol namoyon bo'ladi.

*Xo'sh qalay? – dedi Mirvali istehzo bilan. Bu tog'larning chumolisidan tortib chumchug'igacha sanoqli. Bitta begona kapalak uchib kelsa ham bilamiz*²³.

Ushbu jumlada Mirvali qishlog'ida nima ishlar ro'y bersa hammasidan xabardorman deya kibrlanishi yashiringan. Ushbu misol o'z holicha ham propozitsiya ifodalaydi, matn tahlilidan mana shu mazmun oydinlashadi.

*Ana shu jarliklardagi uyalariga muqaddas qushlarning qaytib kelishi uchun, - dedi qandaydir shoirona kayfiyatda*²⁴.

Ushbu gapda shahar hayotidan zerikkan Saidmurod talabalik davridagi do'sti Xolmo'minning yo'qlab uning oldiga, qishloqqa boradi. Qishloqda do'stining o'zgarib ketganini ko'rgan mehmon do'stining avvalgi holat (yana o'sha eski qadrdoni, fizika-matematika fakulteti talabasi Xolmo'min) ga qaytishiga umid qilyapti. Ushbu gapda individual tagma'no mavjud bo'lib, bu faqat so'zlovchining o'zigagina ma'lumdir.

Odatda, tagma'no oshkora verbal bayonga ega bo'lmaydi. Sababi tagma'noning eng asosiy xususiyatlaridan biri nutq ishtirokchilaridan kimdir matndagi tagma'nodan bexabar bo'lishi lozim yoki so'zlashuvchilar o'zlari

²³ Said Ahmad. Jimjitlik. – T.: 206-bet.

²⁴ Бўтаев Ш. Кўчада қолган овоз. –Т.: 2005. 37-бет.

nazarda tutgan fikrni ma'lum ichki pragmatik maqsad bilan tagma'no vositasida bayon qiladilar:

Bu gap og'ir tegirmon toshi bo'lib mulla Norqo'zini yanchib yubordi.

U, devor ustidagi qizga qarab, bo'g'i q tovush bilan:

- Sen gapirma! Senga kim qo'yibdi gapirishni?

Mavlonning o'g'lidan bir hovuch mayiz olganini ko'zim bilan ko'rganman!..

Hamma kulib yubordi. Tomdan kimdir qichqirdi:

Ha, bu kishining xotini mayiz yemagan²⁵!

Ko'rinib turibdiki, bu misolda o'zining xotini aslida barcha axloqsizlikning uyasi bo'lgani holda o'zgalarga tuhmat qilayotgan mulla Norqo'ziga nisbatan:”- Ha, bu kishining xotini mayiz yemagan!” jumlasini orqali uning asl fojiasini ko'rsatib berilganini ko'rishimiz mumkin. Bunda tagma'no quyidagicha:

Bu kishining xotini mayiz yemagan, lekin bundan-da yomonroq ishlarni qilgan.

Ko'pincha badiiy asarlarda obraz nutqi tomonidan ishora qilingan tagma'no verbal ifoda sifatida yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Ba'zi hollarda nutq muallifining niyatini aniqroq ko'rsatish maqsadida propozitsiya orqali yashirin ko'zda tutilgan tagma'no matnning izohi sifatida oshkora ham beriladi.

Ba'zan esa so'zlovchi tomonidan ishora qilinayotgan tagma'no ijodkorlarning individual uslubi bilan bog'liq holda nutq muallifining niyatini aniqroq ko'rsatish maqsadida tagma'no ichki matnning izohi sifatida oshkora berilishi mumkin.

- Hozir birga o'qigan dugonalarim kelishadi. Jonon o'tirish bo'ladi. Ichida ja... ofatijonlari bor! – Mahbuba dadasiga o'xshab qiyqirib kuldi. Uning bu hazilida ham o'ziga ishonch, ham “sizni hech kimga rashk qilmayman!” degan ma'no bor edi²⁶.

Badiiy asarlarda muallif nutqi orqali ham tagma'no yashiringanini ko'ramiz.

²⁵ O'sha asar. – Toshkent: G'.G'ulom, 2014. – 13-bet.

²⁶ Одил Ёкубов. Диёнат. – Тошкент: Шарк, 1998. – 43-бет

Ushbu matn mantiqiy tahlil qilish oraqali aniqlanadi.

*Solih mahdum xasis, ta'magir, har holda sajiyasi e'tibori bilan uni yaxshilar qatoriga qo'yib bo'lmaydir. Va lekin tabiat xasis emas, tikandan gul, aridan bol yarataberadur*²⁷. Ushbu gapni mantiqiy tahlil qilamiz. Mana shu Solih mahdumday xasis, ochko'z insondan, ***Ra'noday go'zal (gul), aqilli (bol) qiz*** dunyoga kelganiga ishora qilinadi.

Yoki yozuvchi qahramonining harakteridagi ilattatlarni kinoyaviy tagma'no orqali inkor etadi.

“Kecha va kunduz” romanida Razzoq so'fi ta'rifi boshdan oyoq istehzo bilan yo'g'rilgan.

*Razzoq so'fi yana past toifa oldida muborak og'zini ochib, aziz tilini qaldiratmakka majbur bo'ldi*²⁸, - deb yozadi Cho'lpon. Yoki so'fining nutqidan olingan (Og'iz bilan til – bandaning jismida eng aziz va tabarruk a'zolar. Ularni xotin kishiday past maxluq oldida xor qilinadimi?) “*past toifa*”, “*muborak og'iz*”, “*aziz tilni qaldiratmak*” kabi kinoyaviy tagma'nolar so'fining mutassibligiga ishora qiladi.

*Hissiyot agar muhit bo'lsa, u shu muhitning to'lqiniga asir bo'lgan bir cho'loq chumoli*²⁹.

G'afur G'ulom cho'loq chumoli (oyog'idan ayrilib hech narsaga yaramaydigan)motivi orqali Mehrining farzandidan ayrilib, endi qo'lidan hech narsa kelmaydigan, hamma narsaga befarq bo'lib yashayotganligiga ishora

Tagma'no shakllari pragmatika yo'nalishining asosiy muammolaridan biri sanaladi. Muloqotning ichki nutq shaklida tagma'noning kinoya ko'rinishi ifodalanadi. Badiiy asardagi obrazlarning ichki nutqi bizga o'zi haqida ko'proq ma'lumot beradi. Har qanday nutq shaklida nutq predmeti haqidagi axborotdan tashqari so'zlovchi dunyoqarashi va ruhiyati haqida ham axborotlar yashirin tarzda ifodalanadi.

²⁷ Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent, 2007. 22-bet.

²⁸ Чўлпон. Кеча ва кундуз. – Т.: 2015. 13-бет.

²⁹ Гафур Гулом. Ёдгор. – Тошкент: Гафур Гулом, - 1983. 92-бет.

Yoshlikdan qadrdon boʻlgan, hozirda kimsan – oliy dargohning ustunlaridan biri Haydar Samadovich darajasiga koʻtarilgan doʻsti haqida Elchiyev shunday oʻylaydi: “... endi, hozir ichingda ahvolimdan kulsang, kinoya bilan kulsang kerak – bilaman, sezaman-da! Bu menga qilgan muomalalaringdan ham ayon. Ilgari men sen uchun “joʻrajon, Nuriddin joʻra” edim, keyin-keyin “ha, Nuriddinboy!” deya akalik qilmoqqa oʻtding, koʻrgan joyingda nasihatga tusharding; bora-bora quruq, rasmiynamo bir tarzda “Elchiyev” ataydigan boʻlding, endi esa yarim hazil, yarim chin, bepisand, istehzo aralash – “Elchiyevich”... Asta-asta hammasiga koʻndim, koʻnikdim. Nima ham deya olardim – endi sen “Haydar Samadovich”san-da!”³⁰.

Haydar Samadovichning Elchiyevga munosabatidagi kinoyasi nopisandlik, yuqoridan qarash, oʻz pozitsiyasining unikidan afzalliklarini his qilib, kibrlanishdan yuzaga kelgan kayfiyat boʻlib, muallif uchun estetik qimmatga ega emas, qahramonning ijtimoiy-maʼnaviy qiyofasini tavsiflash nuqtayi nazaridan ahamiyatga ega, xolos.

Kitobxon qanchalik ziyrak va eʼtiborli boʻlsa matnda yashiringan ijtimoiy voqelikni faxmlab oladi.

Dodxoning oppoq, uzun soqoli, tovushi titradi.

- *Xoʻp, lafzimdan qaytmayman, mana xotirjam boʻla qol: men hozir seni bir taloq qoʻydim, qaytib kelganingdan keyin uch taloqsan! Bor qumgʻonni koʻtar!..*

Unsin dodxodan yuzini berkitganicha chiqib ketdi³¹.

Ushbu matnda yashiringan ijtimoiy voqelik ***“nomahram erkak oldida ayol kishining yuzini toʻsishi bilan bogʻliq harakati”***dan iborat boʻlib, ijtimoiy kontekstni tashkil qiladi.

Muloqotning yozma shakliga Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro oʻrtasidagi quyidagi rivoyat yashirin mazmunliy ifodaning klassik namunasi hisoblanadi.

³⁰ Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя. – Тошкент: “Akademnashr”, 2016. 45-бет.

³¹ Абдулла Қаҳҳор. Даҳшат. – Тошкент: 1965. 6-б.

Husayn Boyqaro rafiqasi og'ir kasalga duchor bo'lib, bir yil yotadi. Husayn Boyqaro ovga ketayotib vazirlariga tayinlaydi. Kim mening ortimdan xotiningiz o'ldi deb borsa, o'sha kishini o'ldiraman. U ketgach ayoli vafot etdi. Vazirlar o'z jonlaridan qo'rqib, Boyqaroning do'sti Navoiyga murojaat qildilar. Alisher xotin o'lish oldidan qayerda yotganini surishtiradi. Xabarchi malika sarv darxtining tagida yotib jon berganini aytadi. Navoiy qog'ozga bir misra bitib xabarchiga tutqazadi:

Sarv gulning soyasida so'ldi gul, netmoq kerak?

Xabarchi Boyqaro oldiga o'tlanadi. Boyqaro qog'ozni olib o'qidi va o'zi ham bir misra she'r bitib xabarchiga tutqazdi.

Sarvdin tobut yasab, guldin kafan etmoq kerak.

Marhuma Husayn Boyqaro aytgandek o'z qoidasi bilan ko'mildi.

Navoiy nutq predmeti (malikaning vafot etganligi) haqidagi axborotni ***yashirin, tagma'no*** shakli bilan ifodalaydi. Ushbu matnda tagma'no ***evfimistik usul*** bilan amalga oshirilgan.

Oddiy kundalik muloqot jarayonida murojaat qilish orqali ham yashirin mazmun ko'rinishlari ifodalanadi.

– *E, kesinlar, kesinlar! Qani, marhamat, marhamat...*

Bu matnda so'zlovchi nutqiga xos *“chin yurakdan o'z uyiga taklif qilish”, “o'rtoqlik”* mazmuniga teng kelgan holda nutqiy muloqot jarayonida kundalik odatga ko'ra shaklan taklifga teng bo'lmoqda.

“Suhbatni tugatish”, “xayrlashish” mazmunidan iborat takalluf ko'rinishlarining ohang funksiyasi ham o'zgachadir.

— *Choy ichmaymizmi?*

— *Ichkariga yursangiz bo'lar edi* shaklidagi ifoda tarkibida ham tagma'no mavjud bo'lib, bu *“yurakdan taklif qilish ottenkasiga ega emas”* lik mazmunidan iboratdir.

Pragmatika nutqiy muloqot jarayoni bilan bog'liq qator masalalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Jumladan, nutq subyekting faoliyati bilan

bogʻliqlikda uning bayon qilinayotgan axborotga munosabati, nutq adresatining faoliyati bilan bogʻliq holda matnning anglanishidagi oʻziga xos qonun-qoidalari, kommunikatsiya ishtirokchilarining oʻzaro munosabati bilan bogʻliq vaziyatda nutqiy aralashuv shakllari va aralashuv vaziyati bilan bogʻliq holda nutqning uslubiy (rasmiy, norasmiy) shakllari xususidagi masalalar lingivistik pragmatikaning obyekti hisoblanadi.

Ozod Sharafiddinov Ibrohim Rahimning “General Ravshanov” romanini yozuvchi yanglashishi natijasida xatoga yoʻl qoʻygan deya taʼkidlaydi. Pragmatika maʼlum maqsad asosida va obrazning xarakterini ochish uchun xizmat qiladigan gʻayritabiiy matnlarni tadqiqot obyekti sifatida oʻrganadi.

Pragmatik toʻsiq sintaktik qurilmalarning nomeʼyoriy qoʻllanishi va fikr ifodalashning meʼyorsiz uslubi kabi hodisalarni ham oʻrganadi.

Ammo lekin ona tilidan yomon oʻqidi, mumkin emas. Innaykeyin, mening oʻgʻlim boshqa millat farzandi boʻldi, turkcha bilmay qolajak. U mening oʻgʻlim, binobarin turk farzandi, shundoq ekan, turkcha bilgan shart. Oʻgʻlim gapiradi, turkcha tushunganman, uni onasi tushundi, oʻrtoqlari tushunajak, demak oʻqituvchisi ham tushungan kerak albatta. Tildan kamida oʻnta baho olgan kerak³².

Ota-onalar majlisida qatnashayotgan otaning tilidan aytilgan ushbu nutq mazmuni nutq muallifining uslubiy-grammatik tomondangina emas, balki madaniy-maʼrifiy nuqtayi-nazardan ham savodsizligini ifodalaydi. Pragmatik toʻsiq hodisasi asosiy propozitsiyaning tinglovchi tomonidan toʻgʻri anglanishi uchun toʻsiq vazifasini bajaradi.

Pragmatik toʻsiq tushunchasi, asosan, soʻzlovchi hamda tinglovchi oʻrtasidagi kommunikativ munosabatda aniq koʻrinadi, ayniqsa, nutq ishtirokchilari tasavvurida olam hamda til bilimlarining darajalanishi pragmatik toʻsiqning asosi deb qaraladi. Pragmatik toʻsiq axboroti yuzasidan soʻzlovchi pozitsiyasi nol darajada boʻladi. Pragmatik toʻsiq mazmuni uslubiy vosita sifatida

³² Азиз Несин. Фаройиб болалар. – Тошкент: Юлдузча, 1988. –Б. 92.

soʻzlovchi shaxsi fikrlashi hamda talaffuz imkoniyatlari vositasida aniqlanadi³³. Pragmatik toʻsiq soʻzlovchining nutqiy axloqi koʻrinishlaridan biri sifatida uning ichki maʼnaviy olami xususidagi maʼlumotdir. Shuning uchun nutqiy muloqot jarayoni soʻzlovchining maʼnaviy qiyofasini oʻzida mujassamlashtiradi.

2.2. Muloqotda gender farqlanishlar va ularda pragmatik mazmunning yuzaga chiqishi

Ayollar nutqi erkaklar nutqidan fonetik, leksik va grammatik jihatdan farq qiladi. Ammo bundan maxsus ayollar tili mavjud degan xulosa chiqarib boʻlmaydi. Tilshunos olim D. Desheriev shunday qayd qiladi: "...hozirgi zamon tillarida erkak va ayollarning kundalik soʻzlashuvlarida farq sezilmaydi, yaʼni maxsus ayollar tilimavjud emas. Biroq gap ayollar nutqining maʼlum maxsus belgilari ustida boradi"³⁴.

Tahlillar davomida erkaklar va ayollar nutqida biologik va psixologik jihatdan qarama-qarshilik yaqqol koʻzga tashlanadi. Xotin-qizlar xarakteri uchun xos boʻlgan xususiyatlardan biri xis-hayajonli holatlarning tez yuzaga chiqishida koʻrinadi. Bu xususiyat koʻproq nutqiy vositalar bilan ifodalanadi.

Xotin-qizlar nutqida dialogga moyillik nisbatan ustunroq. Ular belgilangan talaffuz meʼyorini aksar hollarda buzib gapiradilar. Ayollar nutqni rivojlantirmasalar ham, erkaklarga qaraganda yangi ifodalarning zaruriy tomonlarini tez oʻzlashtirib oladilar, ularni nutq meʼyoriga kiritadilar. Ular inkor maʼnosini anglatuvchi soʻzlarni juda koʻp ishlatadilar. Shuningdek, xotin-qizlar mubolagʻalarni hamda erkalash ifodalarini ishlatishni yoqtiradilar.

Ayollar, odatda, terminlarni kam qoʻllaydilar, ular maishiy xarakterdagi soʻzlarni maʼqul koʻradilar. Nazokat, muloyimlik ayol uchun xosdir. Bu xususiyat ayniqsa, Sharq mamlakatlari xalqlarida ancha keng tarqalgan.

³³ Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, 2013. 126-б

³⁴ Дешериев Ю.Д. Социальная лингвистика. К основам общей теории. М.: 1977. С. 212.

Ayollar nutqida ifodalangan pragmatik hodisalar tahlillarimiz davomida muloqotning rasmiy shaklida ko`proq uchratdik. Yana shuni aytish joizki muloqotda yashirin mazmunning ifodalaninshi insonning saviyasi, psixologik holati, dunyoqarashi bilan bog`liqligi ko`rindi. Nutq vaziyatiga qarab ayollar ham, erkaklar ham muloqot jarayonida turli ifodalarni qo`llashi mumkin ekan.

Rasmiy sharoitda esa ayol-adresat uchun xos bo`lgan aksar xususiyatlar yo`qoladi. Bunday holda ayol ham kasb-hunari, ma`lumoti, saviyasi asosida ijtimoiy vazifa bajaradi. Suhbatdoshlar nutq mazmunidan ijtimoiy vazifa bajarayotgan har bir shaxs axloqiga xos me`yoriy element chegarasini ajratish imkoniga ega bo`ladi, ular oddiy talaffuzning o`zidayoq sotsial vazifaga xos ma`noni his eta oladilar.

— *Avval tanishib olaylik. Sizni-ku yaxshi taniyman. Endi o`zimni tanishtirsam... Eshikka yozilgan-u, ammo rasmiyatchilikdan ikki tosh nari qochadigan odamman-da. Boshqalar meni Parvoz Daminovich deb chaqirishadi. Siz uchun oddiygina Parvoz akaman.*

Ana, tanishib ham oldik, - dedi Mohiro`y. — Endi qanday ish taklif qilasiz menga?

— *Ustingizga tegirmon toshini yuklamasligim aniq. Keyin boshqalar qilgan ish sizga yarashmaydi, - deya irjaydi Parvoz Daminovich.*

— *Demak, o`rningizni bo`shatib bermoqchi ekansiz-da, - deya jilmaydi Mohiro`y.*

— *Mayli, shu yerga mixlangan ekansiz, o`tiravering. Menga agar joy bo`lsa, tikuv tsexidan ish bersangiz. Tikishni o`rganmoqchiman.*

— *Keling, Sayyora opa, - dedi Parvoz Daminovichning yuzi biroz jiddiylashib. Uning “opa” deyishi ham odatdan tashqari edi. Odatda Sayyoraxon derdi Parvoz Daminovich. Hozir u shu yo`l bilan o`zini hali ancha yoshligini Mohiro`yga ko`rsatib qo`ymoqchiydi³⁵.*

³⁵ Нуриддин Исмоилов. Бургут тоғда улғаяди. — Тошкент: Насаф, - 2010. — Б. 7-8.

Ushbu dialogga e'tibor bersak Parvoz Daminovichning kim ekanligi (**chiroyli ayollar oldida ovozi o'zgarib, tilidan bol tomishi**) namoyon bo'ladi. Mohiro'ndan **nimanidir kutayotganligi, nimalargadir sha'ma (xushomad)** qilayotganligi oydinlashadi. Natijada uning o'tirgan o'rniga noloyiqligini yozuvchi bizga ko'rsatib beradi. Suhbat davomida tinglovchining ham anoyi emasligi (**aql-farosati bu firibgarning maqsadini, hiyla-nayranglarini sezib turganini**) his qilamiz.

*Bu ayol, - deya bir muddat tanaffusdan so'ng gapini davom etkazdi Parvoz Daminovich Mohiro'ning e'tiborini tortish uchun, - sizga aytganim, Sayyoraxon bo'ladilar. Bu ayolning bichgan ko'ylaklari butun respublikada sayr qilib yuribdi*³⁶.

Yuqoridagi jumladan bu **ayol tikkan ko'ylaklar barchaga birdek yoqadi, u tikkan ko'ylaklarini xaridori ko'p** degan ma'no kelib chiqadi va yana bir bor Parvoz Daminovich o'zining bachkana odam ekanligini tasdiqlab qo'yadi.

Har bir shaxs ijtimoiy muhitga mos tarzda harakatlanib, hayoti davomida muayyan vazifaning egasi bo'lib yashaydi. Har bir vazifa egasining o'zaro me'yoriy so'zlash ko'rinishi bo'lib, mana shu nutq so'zlovchi bajarayotgan ijtimoiy vazifa xususida ma'lumot beradi. Buni nutqning sotsial hoslanishi deb yuritish mumkin. Ijtimoiy vazifa bajaruvchi har bir shaxsning alohida me'yoriy so'zlash ko'rinishi mavjud. Ijtimoiy vazifa tushunchasi nutq subyektining egallab turgan vazifasi yoki bajarib turgan vazifasini anglatadi. Muloqotning hayotimizdagi shakl va ko'rinishlariga kelsak, uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlarga mos keladigan, o'sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko'rinishlari va turlari haqida gapirish mumkin. Lekin umumiy holda, har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda bo'ladi. Agar rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqsa, masalan, rahbarning o'z qo'l ostida ishlayotgan xodimlar bilan muloqoti, professorning talaba bilan muloqoti va hokazo, norasmiy muloqot – bu odamning shaxsiy

³⁶ Ўша асар. – Б. 8.

munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o`sha suhbatdoshlarning fikr-o`ylari, niyat-maqсадlari va emotsional munosabatlari bilan belgilanadi.

Nutq subyektining ijtimoiy vazifasi faqat uning kasbi bilangina chegaralanib qolmaydi. Asosiy sotsial vazifasidan tashqari ona, tog`a, yo`lovchi, qo`shni, xaridor kabi vazifalarni ham bajaradi. Bu ijtimoiy vazifalarni bajarayotgan nutq subyektini o`z nutqi orqali har qanday vaziyatga moslasha olishi kerak. Ya`ni o`rtada rasmiyatchilik asosidagi suhbat yoki yaqin insonlari o`rtasida norasmiy suhbat jarayoniga kirisha olishi shart. Aks holda so`zlovchi nutqining mantiqsizligi yuzaga chiqadi. Yozuvchi muloqot jarayonini uslubiy vositaga aylantiradi va undan obrazning individual o`ziga xosligini ko`rsatishda foydalanadi.

Mazmun tushunchasi ko`p qirrali hodisa bo`lib, u o`ziga kommunikativ, ijtimoiy, pragmatik va psixologik yo`nalishni qamrab oladi. Bular o`z navbatida kontekst bilan uzviy bog`lanadi. Pragmatik tahlilda bevosita kontekstga ehtiyoj tug`iladi. Nutqiy vaziyat va kontekst tushunchasi gap mazmunini anglashning asosi sanaladi. Demak, kontekst tagma`no ifodalash va anglashda muhim o`rin tutadi. Bu bir tomonlama fikr yoki qarashdir. Fikr ifodalash, axborot uzatish turli yo`llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Pragmatika bu hodisalarda ifodalangan holatlarni ham tadqiq etadi.

Har qanday nutq predmeti haqidagi axborotdan tashqari, so`zlovchi dunyoqarashi va ruhiyati haqidagi ham axborotlar yashirin tarzda ifodalanadi. Ba`zan muallif qahramon xarakterini individuallashtirish, uning o`ziga xos qiyofasini ochish maqsadida turli jinsdagi personajlar nutqiga mansub til birliklarini almashtirib ifodalaydi. Tinglovchi tasavvurida esa so`zlovchi obraziga xos xarakter shakllanadi. Masalan, ayollar nutqiga xos so`zlarni erkak nutqida qo`llanilishi ayollarga xos ijtimoiy kontekstni yuzaga keltiradi.

“Ey miyang qursin, paxmoqbosh! Mening tomog`imdan taom o`tadimi? Men nima g`amda-yu bu echki dardida. Bo`lsa sakkiz tangadir, to`qqiz tangadir, guluzorni tezroq menga ro`baro` qilib, eritib, yuz echkingni pulini olmaysanmi? Qurboning bo`lay! (Hidoyat nimhez bo`lib, uyalib, o`tirib chetga). Ruxsoring

qurg'ur, seni ko'rganim – ko'rgan shekilli: “Salla to'nni yechib, nozikkina bo'lib o'tiray³⁷”

Yuqoridagi nutqdagi Hidoyatxon nutqida qo'llanilgan **“Ruxsoring qurg'ur”, “Salla to'nni yechib, nozikkina bo'lib o'tiray”** kabi gaplarida ayollarga xos bo'lgan xarakter xususiyatini ko'rishimiz mumkin.

Insonlarning olam haqidagi tasavvurlari tilda o'z aksini topadi. Insonlar o'rtasidagi muloqot til orqali amalga oshadi. So'zlovchi va tinglovchi verbal va noverbal muloqot shakllari orqali muloqotga kirishadilar. Har bir insonning so'zlash (fikir ifodalash mahorati) darajasi har xil bo'ladi. Kimdir axborotni to'liq yetkazib bera olsa, kimdir bu narsaga qiynaladi. Kimdir og'zaki nutqda mazmunli so'zlay olsa, kimningdir yozma nutqi ravon bo'ladi. Bunday insonlarga nisbatan “ko'p kitob o'qigan”, “tugma iste'dodli” yoki “his-tuyg'ularga boy” deya ta'rif beramiz. Insonlar xayoliga kelgan yoki his qilgan narsani so'z bilan tugal ifodalashga ojiz. O'ylangan narsa bilan tilda ifodalanishida farq qiladi. Ifoda hamisha so'zlovchi ifodalashni istaganidan ko'ra tordir. Ya'ni oshkora bayon qilinmagan, ammo so'zlovchi ichki maqsadi aks etgan yashirin mazmun ko'rinishlarini matn mazmunidan ilg'ab olish tinglovchi nutq ishtirokchilariga mas'uliyat yuklaydi. Tinglovchi ifodaning kemptiklarini o'zi to'ldirib olishi (gapning ohanggiga, paralingivistik vositalarga va qisman tasavvurini ishga solishi) kerak bo'ladi.

Axborot to'g'ri tushinilishi uchun so'zlashuvchilarning til haqidagi bilimidan tashqaritinglovchining olam haqidagi bilimlari, jumla qo'llanayotgan ijtimoiy holat bo'yicha tushunchasi, so'zlash jarayonida so'zlashuvchilar ruhiyati to'g'risida bilim va boshqa ma'lumotlarini ham qo'shishi kerak. Axborotni tushunish jarayonida yuqoridagi bilimlarning barchasi barobar xizmat qiladi. Shuning uchun faqat bu bilimlarning o'zaro munosabatini hisobga olgandagina biz nutqiy jarayonning mohiyatini anglashga yaqinlashgan bo'lamiz.

³⁷ Хамза Ҳақимзода Ниёзий. Икки томлик. – Тошкент: 1960. 214-бет.

Bugungi kunda muloqot jarayonida nutq subyekti va uning individual uslubi bilan bogʻliq masalalar tilshunoslar tomonidan oʻrganilmoqda. Bu hodisa sof maʼnoda pragmatikaning oʻrganish obyekti sanaladi. Muloqot jarayonida soʻzlovchi va tinglovchining kommunikativ niyati, ichki maqsadi oʻz aksini topadi. Muloqot mazmunini toʻliq tushunish uchun kontekst va nutq vaziyati muhim hisoblanadi. Mazmun koʻp qirrali tushuncha boʻlib, kommunikativ, pragmatik, sotsial, va psixologik yoʻnalishni qamrab oladi. Bu hodisalar kontekst bilan bogʻlanadi va pragmatik tahlil uchun asos boʻladi. Matndagi oshkora, yashirin axborotni anglashda kontekst muhim hisoblanadi.

Psixologik kontekstda nutq predmeti haqidagi axborotdan tashqari, *soʻzlovchi dunyoqarashi va ruhiyati ham axborotlar yashirin tarzda* ifodalanadi.

Quyida keltirilgan misolda rasmiy muloqot jarayonida soʻzlovchining ichki nutqi ham birgalikda keltirilgan.

Sizga qanaqa haqiqat kerak? - Ovozim oʻzim kutgandan keskinroq, nafratliroq chiqdi. – Haqiqat deganda nimani tushunasiz?

Haqiqat bitta boʻladi, - dedi u chertib-chertib. – Zakunni bizam bilamiz, oʻrtoq rais!

Nima desa boʻladi bu odamga! Nima qilsa boʻadi buni! Xayolimga ahmoqona fikr keldi. Qaniydi, bu koʻppak bilan toʻydami, koʻcha-koʻydami uchrashib qolsam-u, chalajon qilguncha doʻpposlasam! Nachora, men rasmiy odamman. U ham rasmiy shaxs: shikoyatchi.

Eʼtiboringiz uchun, - dedim iloji boricha xoirjam gapirishga urinib. – Absolyut haqiqat kamdan-kam boʻladi. Koʻpincha odam oʻzini haq deb biladi-yu, aslida nohaq boʻladi.

Hozir! – Oʻrnimdan turib Zakunchining roʻparasiga bordim. – Hali eshikdan kirganingizda, - dedim koʻziga qattiq tikilib. – Berlingacha borganman, sening xoʻjayiningga kirolmaymanmi, dedingiz, togʻrimi?

Yaʼni men qirq beshinchi yilda fashistlar poytaxtini zabt etganman, demoqchi boʻldingiz, shunaqami?

Eshitib qo`y! - dedim g`azabdan titrab. – Birinchidan, bu yer fashistlarning idorasi emas! Ikkinchidan Berlingacha borganlarning nomini harom qilma!

Dastlab Olimjon Komilovich Umar zakunchiga sizlab murojaat qiladi. Chunki kasb taqozosi bunga majbur qiladi. Lekin tashqarida unga sizlab murojaat qiladigan holati ham qolmagan edi. *(Qaniydi, bu ko`ppak bilan to`ydam, ko`cha-ko`ydam uchrashib qolsam-u, chalajon qilguncha do`pposlasam! Nachora, men rasmiy odamman. U ham rasmiy shaxs: shikoyatchi)*³⁸.

Olimjonni yoshligida Umar Zakunchi yantoq bilan savalagan edi *(O`shanda yantoq bilan savalaganda dadam badanimdan ikki yuzta tikan sanab olgan)*. Muloqot yakuniga kelib esa g`azab

va jahl mazmuni ifodalanganini ko`ramiz. Chunki shikoyatchi shunga majbur qilgani matndan sezilib turadi.

O`zbeklarda katta yoshli, begona insonlarga “sen”lab murojaat etish odobsizlik, hurmatsizlik belgisi sanaladi. Umar Zakunchi yolg`on gapirgan edi. U urushga bormagan, balki front orqasida xalqni tinimsiz dalada mehnat qildirib, tinka madorini quritgan edi. Bunda o`zining shaxsiy manfaatlari bor edi.

Yoki o`qituvchi va talaba munosabatini oladigan bo`lsak. Har ikkisining muloqot jarayonida muayyan masofa mavjud. Agar muloqot chegarasidan o`tib ketilsa orada do`stlik, sirdoshlik holatlari yuzaga keladi. Ba`zida bu holat salbiy oqibatlarga olib keladi. Har bir shaxs o`z pozitsiyasida tursa yaxshi deb o`ylayman. Shunda orada hurmat yo`qolmaydi.

Yuqoridagi ijtimoiy vazifalar o`ziga xos til elementlariga ega bo`lib, so`zlovchi nutq vaziyatiga ko`ra shu elementlarni almashtirib qo`llaydi. Yuqorida nutq subyektning ijtimoiy vazifasi faqat uning kasbi bilangina chegaralanib qolmaydi. Nutq subyekti o`zining asosiy sotsial vazifasidan tashqari turmush o`rtoq, xaridor, bemor, qo`shni kabi qator qo`shimcha va doimiy vazifalarni ham bajarishini aytdik.

³⁸ Hoshimov O`. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2016. – B. 549-550.

Xafa bo`lmaysan, o`g`lim, - dedi meni yosh boladek erkalab. – O`n yetti yoshga kirib, yigit bo`pqopsan-u bir martayam tug`ilgan kuningni o`tkazmabmiz. Bunaqa narsalarga bizning aqlimiz yetmasa... Qo`yaver, endi har yili bayram qilamiz. (O`tkir Hoshimov)

V. Y. Mirkin tadqiqotlarida “psixologik kontekst” xususida so`z boradi. “Psixologik kontekst” suhbatdoshlarning avvalgi birgalikdagi tajribalariga asoslangan o`zaro ma`lum real bilimlaridir.

Bunga qo`shimcha sifatida muloqot ishtirokchilarining xarakteri, ruhiyati, o`zini tutishi kabi xususiyatlar ham psixologik kontekstga kiritish mumkin. Bunday holat, insonning o`zligi monologik nutqda ko`proq namoyon bo`ladi.

So`zlashuvchilar bir-birining psixologiyasini avvaldan bilganliklari uchun muloqotga kirishayotganda uning xarakteriga qarab muomala qiladi. Matnda iltimos, yalinish, buyruq, va`da, tahdid kabi qator ma`no ottenkalari ochiq namoyon bo`lmaydi. Bu nutq va matn mazmunida anglashilib turadi.

Iskandar ma`qul deya bosh irg`adi. Lekin ertalabga mashina aytmagani esiga tushib, To`rabekka yuzlandi.

— *Darvoqe, Choriga tayinlamabmiz-ku erta bilan vaqtli kelishini. Sen garajga borib kelsang bo`lardi mashinani tashlab ketmasidan. Tez qaytasan-da maylimi? — U og`ir olmaysan-da, og`ayni, deganday iltimosla tikildi.*

To`rabek uning so`zini hech ikkita qilmagan. Oshna tutinibdiki, shunday³⁹. Bu gap og`ir tegirmon toshi bo`lib mulla Norqo`zini yanchib yubordi. U, devor ustidagi qizga qarab, bo`g`iq tovush bilan:

- Sen gapirma! Senga kim qo`yibdi gapirishni?

Mavlonning o`g`lidan bir hovuch mayiz olganini ko`zim bilan ko`rganman!..

Hamma kulib yubordi. Tomdan kimdir qichqirdi:

- “Ha, bu kishining xotini mayiz yemagan ”⁴⁰.

³⁹ Мурод Мансур. Ҳамманинг яшагиси келади. — Тошкент: Hilol-Nashr, 2015. 49-бет.

⁴⁰ Abdulla Qahhor. Anor. — Toshkent: G`G`ulom, 2014. — 13-bet.

Ushbu gap orqali (“bu kishiga”) mulla Norqo`ziga nisbatan “*nafrat*”, “*masxaralash*”, “*mensimaslik*” ma’no ottenkalari mavjud.

Aslini olganda, aloqa-aralashuv va ijtimoiy munosabatlar yuzaga chiqish jarayoni oqimida murojaatning o`zgaga bo`lishi ikkinchi bosqichdir va ayni paytda u yuzagachiqqan real hodisadir. Jarayonning birinchi bosqichi mavhum bo`lib, u abstract holda kechadi. Chunki so`zlovchi har qanday fikr bildirish, xabar-ma’lumot uzatish oldidan o`ziga-o`zi murojaat qiladi, buyruq beradi, ma’lum habarni berish yoki ma’lum habarni berish yoki bermaslik, so`rash yoki so`ramaslik haqida muayyan to`xtamga kelibhukm chiqaradi. Bu o`ziga – birinchi shaxsga yo`naltirilgan jarayondir, lekin uning natijasi va odatda nutqdagi ifodalanuvchi qismi ikkinchi shaxsga bo`lgan murojaat tarsi sifatida shakllanadi.

Ijtimoiy munosabatlar va muloqot jarayonida birinchi bosqich ichki nutq bilan, ya’ni tashqi olam uchun talaffuz etilmaydigan, tovushsiz nutq bilan bog`lanadi. Ayollar ichki nutqida ifodalangan pragmatik hodisalarda ularning ruhiy istiroblari ko`proq namoyon bo`ladi.

*Muhabbat? Nima u muhabbat? Muhabbatning ko`chasidan o`tganmi o`zi bu! Qo`yib bersangiz “Muhabbatni nimaga qo`shib yeydi?” deyishdan toymaydiku! Bunaqalarga nima kerak o`zi? Foyda, mansab, manfaat. Mana, nima uchun yashaydi! O`ziga manfaat tegmagan yerda hamma narsa bir pul!*⁴¹

Ushbu parchada Ra’noning o`z eriga nisbatan “*nafrat*”, “*haqorat*” kabi ma’nolar har bir jumlada yashirin ifoda etiladi.

Erkaklar ichki nutqida ifodalangan pragmatik hodisaning salbiy ko`rinishlari ko`proq namoyon bo`ladi.

Qayoqdan keldi Shomurod cho`loqning itvachchasi? Hammasiga manavi jodugar aybdor! Yuragi kasalligini bahona qilib, ishdan ham bo`shab oldi. Boqim bo`lib o`tiribdi, tekinxo`r!

Anavi itdan tarqagan kim bo`ladi senga? Nari borsa Soybo`yiga obtushib choyxonada bitta osh qilib berarsan! Keyin nima bo`ladi? Bu yog`i menga tanmi?

⁴¹ Hoshimov O`. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2016. – B.

Uch kunda bir likkilab kelaversa dumingni tutqizmay qochib qolarsan. Aravangni tort so`tak! Aralashma birovning ishiga.

*Voy, jo`jaxo`roz-ey! “Berlingacha borganlarni nomini harom qilma” dedimi? Sansirab aytdi-ya! Voy chittag-ey! Avval burningni artib ol mishqi! Men orden olganimda senga o`xshaganlar nonni “nana” deb yurardi, olifta-quruq!*⁴²

Yuqorida ijodkor o`z qahramonini gapirtirish orqali uning xarakterini ochib beradi, unga o`z munosabatini biladiradi degan edik. Taniqli yozuvchi O`tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi” romanida Umar Zakunchini ochib berishda shu usuldan foydalangan. Ya`ni uning ma`naviy past, tuban, xasis inson ekanligiga ishora qiladi.

E`tibor berib qarasak, verbal kontekstda so`zlovchining psixologik holati ochiq bayon qilinmaydi, har qanday holatda ham so`zlashuvchilar bir-birlariga “men seni mensimayapman”, “men seni kalaka qilyapman” kabi psixologik munosabatlarni ochiq tekstda bermaydilar. Bularning barchasi nutq yoki matnda nutqiy aktlar sifatida namoyon bo`ladi.

N.D. Arutyunova amaliy fikr-mulohazaning psixologik va emotsional faktorlar bilan munosabati haqida gapirar ekan, T. Gobbsning quyidagi fikrini keltiradi: “Ayni bir narsaga nisbatan inson qalbida istak, nafrat, umid va qo`rqinch paydo bo`lsa, hamda o`sha narsaning yuzaga chiqish yoki chiqmasligining yaxshi va yomon oqibatlari haqidagi fikr ongimizda navbatma-navbat almashinib tursa, qalbimizda almashinib turgan istak, nafrat, umid va qo`rqinchlar amalga oshguniga qadar yoki mumkin emas deb hisoblangunga qadar o`tgan davr o`ylash davri deb ataladi⁴³”

Mana shu almashinuvlar jarayonida inson o`ziga-o`zi murojaat qiladi, fikr-mulohaza yuritayotgan, o`ylanayotgan narsani, ongidan o`tayotgan o`z fikrini yuzaga chiqarish yoki chiqarmaslik to`xamiga kelgunga qadar bo`lgan jarayon insonning o`ziga murojaat qilishning eng faol jarayoni, eng faol davri sanaladi.

⁴² Hoshimov O`. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2016. – B. 549-550.

⁴³ Арутюнова Н.Д. Практическое рассуждение и язык. Сб. :”Сущность, развитие и функции языка” . М: Наука, 1987, с.6

Bundan ko`rinadiki, murojaat dastlab so`zlovchining o`ziga bo`lgan murojaatidan boshlanadi. Boshqacha aytganda, inson doimo o`zining nazoratida bo`ladi.

Anqarang-a! – U labini shu qadar kinoya bilan burdiki, mo`ylovi yana qiyshayib ketdi⁴⁴.

Ushbu parchada esa qahramonning ma`naviy qiyofasi (o`z hukmini o`tkazuvchi) ochib beriladi. Suhbatdoshini kalaka qilish, mensimaslik kabi ma`nolar ifodalangani seziladi.

Javlon zavq qilib kuldi.

Meni o`zi don sepib zo`rg`a uyiga olib kirgan-u, qayoqqa haydaydi! Menga qara hoy saksovol, don sepgansan-a? Mototsikl olib bergansan, tilla soat olib bergansan! Lekin ov miltig`ini yeb ketding!..

Ushbu jumalarda qahramon nutqi (muallif nutqi) orqali yozuvchi uning hayotdagi darajasini, hayotdagi o`rnini yo`qotib qo`ygan insonni tasvirlab beryapti. Qahramonning so`zlarini o`qib beixtiyor kulging keladi. Tagma`noning individual ko`rinishlari faqat o`zigagina xos kishilar nutqida qo`llanib, ularning ijtimoiy hayotdagi o`rni haqidagi tushunchaga ega bo`linadi. Bunda so`zlovchi nutqida qo`llanilayotgan tagma`no shartli tagma`no sifatida so`zlovchi va tinglovchi uchun tushunarli bo`ladi. Boshqa ishtirokchilari uchun noma`lum bo`ladi. Individual tagma`noning ba`zi ko`rinishlari asosan so`zlovchi yoki tinglovchining xarakteri bilan aloqador.

Javlon shivirladi:

- Anvar yosh bola-ku, qadringizga yetadigan odam bilan gaplashsangizchi! Bitta-ikkita ko`ylak olib berish qo`lidan keladigan odam bilan gaplashing!..

Muhayyo qip-qizarib ketdi va ikkala yuzini ushladi.

- Voy!..Onangizga ko`ylakni birovlar olib berarmidi?

Bu yerda *puli bor*, aniqrog`i menga o`xshagan “*erkak*” bilan gaplashing degan ma`no yuzaga chiqadi.

⁴⁴ Hoshimov O`. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2016. – B.

Muhayyoning nutqidan esa onangiz ham yurimsoq bo'lganmi? Tarzidagi tagma'no seziladi.

Go'ristonda ko'rganingizda boshqa ko'ylakda edim, - dedi Muhayyo tuflisiga qo'l uzatib, - men boshingizning sirti shunaqa silliq, pashsha qo'nsa toyilib tushadi desam, ichi ham shunaqa, hech narsa turmaydiganga o'xshaydi!

Ushbu misolda **boshingda hech narsa bo'lmagani kabi miyang ham bo'm-bo'sh ekan** degan tagma'nni bilib olamiz. Tinglovchining *ahmoqligini*, ovsar ekanligini ko'rsatib beradi.

- *Mash'alani yaqinroq tut! Ie, Xonzoda begimmilar? Ko'zlarimga ishonmaymen! Begim, bu ne hol? Nechun mardona kiyinibsiz?*

- *Nomardlar ko'payib ketgani uchun mardona kiyindim!*

*Tanbal bu istehzoni o'ziga olgisi kelmay kuldi: Qo'rg'onda mardlar qolmagan bo'lsa, mana biz keldik begim!*⁴⁵

Ushbu parchada Xonzoda begim Ahmad Tanbalning Boburga *nomardlik*, *xoinlik qilganini* tagma'no orqali ifodalaydi. Yana Ahmad Tanbalning *farosatsizligi* psixologik kontekstga misol bo'ladi.

- *Sizlarmi mardlar?! Sizlar uchun mardlik bilan xoinlikning farqi qolmadimi?! Kechagina Bobur mirzoga sodiqmiz, deb qasamyod etganlar bugun unga shunchalar yomonlik qilmoqdasiz! Men aminmen: ertaga siz Jahongir mirziga ham xiyonat qilursiz!*

Ahmad Tanbal qilichining sopini changallab:

- *Haddingizdan oshmang, begim! – dedi*⁴⁶.

Ushbu parchada Xonzoda begim nutqidan “*qat'iyat*” ohangi orqali ifodalangan “*qo'rqmaslik*” va “*rostgo'ylik*” kabi manolar orqali psixologik kontekst yuzaga chiqadi. Ahmad Tanbalning tasviridan esa “*g'azablanish*” ma'nosi ifodalanadi.

⁴⁵ Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 136.

⁴⁶ Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 137.

Biz yuqorida psixologik kontekst ko`rinishlarini keltirish orqali bayon qilinayotgan axborot nutq ishtirokchilari uchun turli darajada ta'sir kuchiga ega ekanligini ko`rsatdik va ayni paytda yashirin mazmunli gaplardan farqlanishi ham ko`rinadi.

X U L O S A

Ushbu bitiruv malakaviy ishida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Muloqot – ikki va undan ortiq kishilar o`rtasida bilish yoki baholash tarzidagi axborot almashishda namoyon bo`luvchi o`zaro ta`sirdir. Til muloqotga kirishuvchilar o`rtasida aloqa bog`lashni ta`minlaydi. Muloqot jarayoni nutqiy faoliyatning o`zidir. Murojaat insonning tilga bo`lgan ehtiyojining asosiy qismidir.

2. Pragmatika nutqiy muloqot jarayoni inson faoliyatining o`nlab qirralari bilan bog`liqlikda o`rganadi. Pragmatika muayyan vaziyatda aytilgan axborotning tinglovchiga ta`sirini o`rganadi. Demak, pragmatika nutqiy muloqot jarayonida sodir bo`lgan holatlarni o`rganadi.

3. Murojaat tinglovchini xabar – ma`lumot olishga tayyorlash, uning e`tiborini tortish demak.

4. Murojaat jarayoni ikki bosqichli bo`lib, birinchi – abstrakt bosqich so`zlovchi ongida kechadi va u kuzatish uchun ochiq emas. Biz u haqida konkret ikkinchi bosqich tahlili orqali ma`lumot olamiz. Bu boqichda murojaat jarayoni aynan tinglovchiga yo`nalish holati aks etadi.

5. Tagma`no pragmatikaning xususiy masalalaridan biridir. Tagma`no propozitsiya orqali ishora qilinuvchi hukm ichidagi hukmdir. Tagma`no nutq ishtirokchilari tomonidan ochiq shaklda ifoda etib bo`lmaydigan matn ostidagi ichki yashirin fikrdir.

6. So`zlovchi tomonidan ishora qilingan tagma`no noverbal vositalarda ham yuzaga chiqishi mumkin. Bunda nolisoniy vositalar ham asosiy rol o`ynaydi. Muallif bu vositalar ishlatgan o`rinlarga izoh berib ketadi. Ma`lumotlarga qaraganda 80% axborot imo-ishoralar, mimika va pantomimika yordamida ifodalanadi. Nolisoniy vositalar nutqni to`ldiradi, muloqot ishtirokchilarining emotsional holatini aks ettiradi.

7. Badiiy asarlarda muallif nutqi orqali ham tagma`no yashiringanini ko`ramiz. Bunday matnlar mantiqiy tahlil qilish oraqali aniqlanadi.

8. Tagma'no shakllari pragmatika yo`nalishining asosiy muammolaridan biri sanaladi. Muloqotning ichki nutq shaklida tagma'noning kinoya ko`rinishi ifodalanadi. Badiiy asardagi obrazning ichki nutqi bizga o`zi haqida ko`proq ma'lumot beradi. Har qanday nutq shaklida nutq predmeti haqidagi axborotdan tashqari, so`zlovchi dunyoqarashi va ruhiyati haqida ham axborotlar yashirin tarzda ifodalanadi.

9. Tilda yana pragmatik to`siq hodisasi mavjud bo`lib, pragmatikaning xususiy masalaridan biri hisoblanadi. Pragmatik to`siq sintaktik qurilmalarning nome'yoriy qo`llanishi va fikr ifodalashning me'yorsiz uslubi kabi hodisalarni ham o`rganadi.

10. So`zlashuvchilar bir-birining psixologiyasini avvaldan bilganliklari uchun muloqotga kirishayotganda uning xarakteriga qarab muomala qiladi. Yozma matnda iltimos, yalinish, buyruq, va'da, tahdid kabi qator ma'no ottenkalari har doim ham ochiq namoyon bo`lavermaydi. Bu muloqot jarayonidan anglashilib turadi.

11. Tahlillar davomida erkaklar va ayollar nutqida biologik va psixologik jihatdan qarama-qarshilik yaqqol ko`zga tashlanadi. Xotin-qizlar xarakteri uchun xos bo`lgan xususiyatlardan biri xis-hayajonli holatlarning tez yuzaga chiqishida ko`rinadi. Bu xususiyat lisoniy va nolisoniy vositalar bilan ifodalanadi.

12. Ayol va erkak muloqotidagi pragmatik hodisalar quyidagi farqlarga ega bo`lishi bilan xarakterlanishini ko`rdik.

a) erkaklar muloqot jarayonida qisqalik va aniqlikka intilishlari (shakli ixchamligi) namoyon bo`ldi. Ya'ni erkaklar nutqi tahlilga boyligi bilan ajralib turadi. Erkaklar nutqi muloqot jarayonida kesatq, piching, qochiriq kabi ma'no ottenkalari ustun ekanligi bilan ayollar nutqidan farq qilishini ko`rdik.

Ichki nutq shaklida insonlarning o`zligi ko`proq namoyon bo`ladi. Erkaklar ichki nutqida tagma'noning kinoya ko`rinishlari, o`z saviyasi bilan o`zgani baholashi: nopisandlik, yuqoridan qarash, o`z pozitsiyasini suhbatdoshinikidan yuqori qo`yish kabi holatlarning ko`proq uchrashini kuzatdik.

b) ayollar nutqining rasmiy va norasmiy ko`rinishlarini kuzatganimizda o`z sha`nini himoya qilishi, mag`rurligi, mehribonlik, muloyimlik kabi ma`no ottenkalari yashirin ifodalanganini, bunda ohangning o`ziga xos o`rni borligini ko`rdik.

Ayollar ichki nutqidagi pragmatik hodisalarda ko`proq ularning ruhiy iztiroblari, tushkin kayfiyatlari namoyon ekanligini kuzatdik.

Muloqot jarayoni verbal ifoda orqali ham, noverbal ifoda orqali bo`lsa ham, ularning mazmuni so`zlovchi va tinglovchi nutqiga xos xususiy ma`no ko`rinishlari bilan to`ldiriladi. Shuning uchun har qanday ifoda semantik tuzilishida nutqiy vaziyatga ko`ra yashirin xususiy tagma`no mavjud va ular o`ziga xos tarzda namoyon bo`ladi.

Ayollar va erkaklar nutqida pragmatik mazmunning yuzaga chiqishida yakdil xulosaga kela olmaymiz, chunki har bir nutq subyekti hoh u rasmiy bo`sin, hoh norasmiy bo`lsin o`z saviyasi, dunyoqarashi, psixologik holatidan kelib chiqib, nutq vaziyatiga qarab ayollar ham, erkaklar ham muloqot jarayonida turli ifodalarni qo`llashi mumkin ekan. Biz ishimizda tahlil qilgan misollarimizdan kelib chiqqan holda yuqoridagi xulosalarga keldik. Ushbu ish davomida ayollar va erkaklar nutqini kuzatib bordik. Erkaklar nutqida pragmatik hodisalar ko`proq uchraydi der edik, ammo ayollar nutqi ham pragmatik hodisalarga boy ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
2. Каримова В. М. Ижтимоий психология асослари. – Тошкент, 1994. 8.
3. Дешериев Ю.Д. Социальная лингвистика. К основам общей теории. М.: Наука, 1977.
4. Гуломов А.Ғ., Аскарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент: Фан, 1965.
5. Ўзбек тилининг изохли луғати. Икки томлик, биринчи том. М.: Наука, 1981.
6. Саидхонов М.М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши. НДА. Т., 1993.
7. Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. – Тошкент: Фан, 2008.
8. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент:Ўқитувчи , 1995.
Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: “Akademnashr”, 2013.
9. Арутюнова Н.Д. Практическое рассуждение и язык. Сб. :”Сущность, развитие и функции языка” . М: Наука, 1987.
10. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. Фан номз... дис. автореф. – Самарқанд, 1994.
11. Саидхонов М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши: филол.фан.номз...дисс.автореф. – Тошкент, 1993.
12. Тоҳиров З. Ўзбек тилида прагматик семаларнинг ҳосил бўлиши ва уларда субъектив муносабатнинг юзага чиқиши: филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1994.

13. Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013.
14. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent: O`qituvchi, 2006

BADIIY ADABIYOTLAR:

1. Мюллер Э. Дарахт. // Ёшлик. 2013. 4- сон. 52-бет.
2. Said Ahmad. Jimjitlik. – Toshkent: O`zbekiston, 2007.
3. Бўтаев Ш. Кўчада қолган овоз. –Т.: Маънавият, 2005.
4. Abdulla Qahhor. Anor. – Toshkent: G`.G`ulom, 2014.
5. Ёқубов О. Диёнат. – Тошкент: Шарқ, 1998.
6. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent, 2007.
7. Чўлпон. Кеча ва кундуз. – Тошкент: Шарқ, 2015.
8. Ғафур Ғулом. Ёдгор. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1983.
9. Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя. – Тошкент: “Akademnashr”, 2016.
10. Азиз Несин. Ғаройиб болалар. – Тошкент: Юлдузча, 1988. –Б. 92.
11. Исмоилов Н. Бургут тоғда улғаяди. – Тошкент: Насаф, 2010. – Б.255.
12. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: Sharq, 2004. – В. 543.
13. Абдулла Қаҳҳор. Даҳшат. – Тошкент: Ёш гвардия, 1965.
14. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Икки томлик. – Тошкент: Ёш гвардия, 1960.
15. Hoshimov O`. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2016.